821.512.133-2
N-79

BIRINCHI KITOBIM

AZIZBEK NOROV

EYNSHTEYN JUMBOG'I

HIKOYALAR

Kitob shu yerda ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

Ilgari berilmalar miqdori _____



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

AZIZBEK NOROV

EYNSHTEYN JUMBOG'I

Hikoyalar

TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

Nashr uchun mas'ul:
Jo'rabek JAHON

Mas'ul muharrir:
Sobir O'narov

Aziz Norovning hikoyalarini o'qir ekansiz, unda voqeabozlikdan yiroq voqelik, qismatning o'yinlari oldida inson qalbining evrilishlari, turfa taqdirlar g'oyatda sinchkovlik va mahorat bilan qalamga olinganiga, yosh yozuvchining hayotni teran nigohlar ila kuzatishiga guvoh bo'lasiz. Eng muhimi, u nimani va qay yo'sinda yozish ko'nikmasini allaqachon egallab ulgurgan. O'ylaymizki, uning ilk hikoyalar to'plami sizga-da manzur bo'ladi.

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6780-5-7

SHIRIN SHAHAR
AXBOROT-KUTUBXONA
MARKAZI
INV № 2021/9-35

© A. Norov, 2020
© "Adabiyot", 2020

"AQL TISHI CHIQQAN" YOSH YOZUVCHI

Mazkur to'plamga yosh yozuvchi Aziz Norovning uch hikoyasi kiritilgan: "Eynshteyn jumbog'i", "O'tmish ko'z yumgan voqea", "Zulmat va ziyo".

Aytish joizki, Aziz boshlovchi havaskor emas, yozish malakasi borasida allaqachon "aql tishi" chiqqan. Shu bois dabdurustdan unga aql o'rgatib bo'lmaydi.

Dastlabki hikoya bundan qariyb o'n yil avval bitilgan ekan. Tuppa-tuzuk, risoladagiday hayot kechirayotgan, hatto lavozimi ham bir pog'ona yuqorilagan inson tasodifan somsa o'ralgan gazetadagi Eynshteyn jumbog'ini o'qib qoladi-yu, butkul halovati yo'qoladi. Oxir-oqibat shu jumboqni yechish ilinjida oila, ish, butun hayot tarzi ishdan chiqadi. Bu holat o'n olti yil davom etadi va kunlarning birida boshqa bir gazetada xuddi shu jumboqqa ko'zi tushib, avvalgi gazetada chop etilgan jumboqda birgina "oldida" degan so'z tushib qolganini payqaydi. Hazrat Navoiy aytganidek, bir harf dunyoni barbod aylashiga jonli misol.

Balki, bu voqeaga ishonmaslik mumkindir, biroq yozuvchi unga o'quvchini iqror qilishi kerak bo'ladi. Adibning mahorati ham shu yerda ko'rinadi. Buni qanchalik uddalaganiga kitobxon ham hikoyani o'qigach, amin bo'ladi.

"O'tmish ko'z yumgan voqea"dagi jarayon asli qaysi tarixiy manbaga asoslanganini bilish qiyin. Tarix tubsiz dengizki, uning ichidan qancha qahramon axtarsangiz, topiladi. Balki, bu qahramonlar ham tarixning qaysidir puchmoqlarida mavjud bo'lgandir. Yusuf Boqiy degan kallakesar jallod Ali Shahiniyni o'ldirib yuboradi va g'azallariga ega chiqadi.

Ushbu kitobni mutolaa qilar ekanmiz, yosh adibning o'ziga xos yozish uslubi borligi, uncha-muncha G'arb-u Sharq adabiyotlaridan xabardor ekanligi oydinlashadi. Faqat bu uslubni yanada kengaytirish, sayqallashtirishni tasviya qilgan bo'lardik.

Yozuvchining esa mudom ezgulik, ha, Ezgulik tarafida qolishini tilaymiz.

Sobir O'NAR,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
yozuvchi.

"EYNSHTEYN JUMBOG'I"

1

Dekabrning asov shamoli tun bag'rida jin chalganday o'zini har yonga uradi. Sovuqdan junjikkan imoratlarni qurshab olib, bo'riday uvillaydi. Imoratlar esa uning ta'qibidan cho'chiganday bag'ridagi darchalarning chiroqlarini o'chirgan, tunning bir parchasi bo'lishga intilayotgan bo'ladi. Biroq bu binolar biqinidagi ko'rinishidan g'arib, bir turtkidanoq to'kilib tushadigandek va o'z turq-tarovatidan uyalib o'sha turtkiga mushtoqdek taassurot uyg'otadigan ikki qavatli kottejning pastki qavatidagi derazadan zaifgina yorug'lik miltillaydi.

Tokchaga aynib qolmasin uchun og'zi ochib qo'yilgan qatiq, dimiqib qolgan kechagi yovg'on, ancha kun turib qolgan sabzavotlar islari omuxta bo'lib, xonada badbo'y hid o'tirib qolgandi. Kambag'al odamlarning bor boyligi ko'z oldida turganidek, turli bo'yoqlar chaplangan stol (u har gal tamaddi qilganida bamisoli ranglar jilosidan ilhomlangan rassomdek stolga tikilishni kanda qilmasdi), spirtli ichimliklar joylash uchun mo'ljallangan temir quti – u stul vazifasini o'tardi, uvadasi chiqib ketgan ko'rpa-yostiq to'shalgan temir karavot, qurum va yog'-moy bosib qolgan gaz plitasi – unga tabiiy gaz kelmay qo'yganiga ancha bo'lgan, faqatgina bozordan

arzon-garovga sotib olingan qo'lbola elektr plitani ko'tarib turishga yarardi, xolos – katalakday xonaning o'zida joylashgandi. Suvoqlari ko'chib ketgan devorga omonatgina suyangan bir kimsa qaddi bukilib, erigan shamdek shumshayib o'tirardi. Uning nigohi bir nuqtada – jahoniy fizik olim Albert Eynshteynning tilini ko'rsatib tushgan mashhur suratida ma'no-mazmunsiz va shuursiz qotib qolgandi. Olim ham uning holidan kulib o'tirganday edi go'yo. Izg'irin shamol derazaning salqi bo'lib qolgan oynasini betinim shapatilar, yoriq joylariga tiqib qo'yilgan paxtani itargancha, to'g'ri uning ajin bosgan yuziga urilardi. Yoshi endigina qirq beshdan oshgan bo'lsa-da, sochlari qordek oppoq edi...

Samoning par yostig'i teshilganday laylakqor yog'ardi.

Bu kun eski yarasi yangilandi. U iztirob to'la ko'zlarini yumib oldi.

O'shanda ham shunday laylakqor yog'ardi...

2

... Ichki telefondan kotibaning mayin ovozi eshitildi:

– Xayrli kun, Azim aka. Birinchi qor bilan. Rahbarimiz sizni so'rayapti.

Azim "Istiqlolbank" xususiy bankining boshqaruvchisi eshigini jur'atsizgina taqillatarkan, miyasida ming xil o'y charx urar edi.

"Nima gap bo'lishi mumkin?"

U ichkarida uzog'i bilan o'n daqiqacha bo'ldi. O'z xonasiga keliboq, uyga qo'ng'iroq qildi:

– Malika, bir xushxabarim bor. Qani, uning nimaligini top-chi? – dedi xotiniga dabdurustdan.

– Xushxabar?! Nima bo'lishi mumkin?.. Aytavering-da. Bilasiz-ku, topishmoqlarga tishim o'tmaydi... Baribir, topolmadim. O'zingiz ayta qoling, Azim aka.

– Meni kredit bo'limi rahbari etib tayinlashdi!

Malikaning yuragi hapqirib ketdi. O'zini parqu bulutdek yengil his qildi. Oyoqlari yerdan uzilganday bo'ldi. Ruhi olis-olislarga parvoz ayladi. Xotiralar epkini esdi, ular musiqiy sonatalarga aylanib, uni allalay boshlaganidan eriga tuzuk-quruq javob qaytarolmadi, o'z xayollari bilan yolg'iz qolish uchun telefonni o'chirib qo'ydi.

Azim bilan u sevishib turmush qurgandi. Boshida ota-onasi yigit erta yetim qolib, mehribonlik uyida ulg'aygani uchun o'ylanib qolishgandi. Bir tomondan, ancha qarshilik qilishdi, qizlarini bu murodidan qaytarishga jonlarini jabborga berib tirishishdi, boshqa tomondan esa ikkilanishardi. Ikkilanishda har ikki yo'lga mayl, moyillik bo'ladi. Onasining so'zi bilan aytganda: "Bunaqa oilaparvar yigitlar hozirgi zamonda anqoning urug'i". Xullas, hamsoya-xalq, qarindosh-urug' va tanish-bilishlarning oldida xohish-irodalarini mustamkam qilib, ularning oila qurishlariga monelik qilishmadi. Pirovardida, ikki yoshning orzusi ushalgandek bo'ldi.

Yangi lavozimni "yuvish" uchun Azim buxgalteriya bo'limining barcha xodimlarini uyiga, kechki ziyofatga taklif etdi. Ziyofat ziyofatday bo'ldi. Har holda, uzzukun ta'bi tirriq, ayniqsa, hamkasblar davrasida yanada tundlashib oladigan bosh hisobchi Rustam Rahimovichning qulfi dili ochilganidan, bir marta o'yin-kulgi avjiga chiqqanida semiz-go'shtdor barmoqlarini ko'tarib raqsga tushganidan ziyofat ko'ngildagidek o'tdi, desa bo'lardi. Barcha qadah so'zlari Azimning sharafiga yangraganidan esa uning istiqboli porloq bo'lishi tayindek edi. Davradagilarning hech biri bunga e'tiroz bildirmas edi.

Azim mehmonlarni kuzatib qo'yib, ular bilan xayr-xo'shlashdi. Uyga qaytib kirganida Malika gazetaga o'ralgan o'ntacha somsani qo'liga tutqazib, ularni keksa qo'shnisi Salim boboga eltib berishini tayinladi. Juda toliqqandi. Ko'ziga momiqqina yostig'idan o'zga hech narsa ko'rinmas, ayni dam undan qadrli narsasi yo'qdek tuyuldi. Shu boisdan hozir keksa qo'shnisi bilan ezmalanib o'tirishga sira xohishi yo'q edi. Ulardan bir qavat yuqorida turuvchi Salim boboning uyida yo'qligi esa ayni muddao bo'ldi. Yo keksa qo'shnisi har doimgi odatiga ko'ra ertaroq uxlab qolgan, yo jiyanlari o'zlari bilan olib ketishgan. Azim xayolidan o'tkazgancha, ortga qaytib oshxonadagi stolga somsani qo'yarkan, yog' bosib qolgan gazetadagi "Eynshteyn jumbog'i" deb nomlangan sarlavhaga ko'zi tushdi. Diqqati jam bo'ldi. Engashdi. Qiziqsinib uni o'qiy boshladi:

"EYNSHTEYN JUMBOG'I"

Aytishlaricha, buyuk fizik Albert Eynshteyn bolalik chog'larida mantiqiy bir topishmoq o'ylab topgan. So'ng o'ziga assistent tanlashda ham nomzodlarga aynan shu topishmoqni berib, ularning mantiqiy fikrlashini tekshirib ko'rgan ekan. Uning yordamida oddiy insonlardan intellektual elitani ajratib olish mumkin. Biroq odatda 98 foiz kishi bu topishmoqni yechishga qodir emas. Agar o'zingizni sayyoramizning qolgan ikki foiz aholisi safiga qo'shishni istasangiz, topishmoq javobini topishga urinib ko'ring. Ushbu jumboqning bir nechta variantlari mavjud. Quyida esa e'tiboringizga "Layf" jurnalining 1962-yil 17-dekabrdagi sonida ilk bor nashr etilgan variantini havola etamiz:

1) Beshta uy bor. Ularning barchasi turli rangda.

2) Har bir uyda bir nafar odam yashaydi. Ularning millati har xil: yapon, ukrain, ispan, ingliz, norvegiyalik.

3) Har bir odam ma'lum bir ichkilik ichadi, ma'lum bir savdo belgisidagi tamaki chekadi va ma'lum bir jonivorni boqadi.

4) Besh kishining birortasi ham bir xil ichimlik ichmaydi, hech kim bir xil savdo belgisi ostidagi tamaki chekmaydi va hech kim bir xil jonivor boqmaydi.

Savol: Ulardan qaysi biri suv ichadi? Kim zebra boqadi?..."

– Voy! – Malika Azimni ko'rib cho'chib ketdi. So'ng qo'llari bilan katta ochilgan og'zini berkitdi. Go'yo o'zga bir olamdan qaytib kelganday Azim uchib tushdi.

– Nega baqirasan? – qoshlari g'ijimlangan matodek chimirildi.

– Sizni Salim bobonikida deb o'ylabman...

– Uyida yo'q ekan, – xotinining gapini kesdi Azim.

Malika oshxona ostonasida burchakka suyab qo'yilgan polyuvgichday qaqqayib erini biroz kuzatib turdi, so'ng tezda bu holidan bezib qoldi:

– Sizni bilmadim-u, men juda toliqdim... yotaman, – Malika Salim boboga atalgan somsalarni idishga joylab qo'ydi.

Azimning labidan ko'chgan tabassumi xotinini yotoqxonagacha kuzatib qo'yib, tag'in ko'zlarini gazetaga tikdi:

"... Yordam kerakmi? Unda e'tibor bering:

1. Ingliz qizil uyda yashaydi. 2. Ispan it boqadi. 3. Ukrainalik choy ichadi. 4. Yashil uy oq uydan chapda joylashgan. 5. Yashil uy egasi qahva ichadi. 6. "Old Gold" chekuvchi kishi shilliqqurt boqadi. 7. O'rtadagi uyda yashovchi kishi sut ichadi. 8. Sariq uyda yashovchi kishi "Kool" chekadi. 9. Norvegiyalik birinchi uyda turadi. 10. "Chesterfield" chekuvchi odam tulki boquvchi kishi oldida yashaydi. 11. Ot boqadigan odam "Kool" chekadigan kishi

oldida istiqomat qiladi. 12. "Lucky Strike" tamakisini chekuvchi kishi apelsinli sharbat ichadi. 13. Norvegiyalik havorang uyda yashaydi. 14. Yapon "Parliament" chekadi. 15. "Old Gold" chekuvchi odam suv ichadigan kishiga qo'shni turadi.

Xo'sh, natija qanday? Yana o'ylab ko'ring.

1-, 2-, 3-, 4-, 5-uyning rangi qanaqa? Unda qaysi millat vakili turadi? U qanday ichimlik ichadi? Qanday markali sigaret chekadi? Qaysi jonivorni boqadi?"

"... – Sen vunderkindlar haqida eshitganmisan?! Gapiiiir!

– Yo'q... – yig'lamsiradi bola.

– Bilishing kerak, bolam. Eshityapsanmi, bilishing kerak!

Maykachan, tepakal, maykasidan qorni do'ppayib chiqqan, jundor erkak besh-olti yashar bolaning yuziga shapatiladi.

– Yig'lama, yig'lama, dedim!.. Vunderkind bo'lishing kerak, bolam! Qara, – u odatda bolali oilalarda uchrab turadigan tartibsizlik, ya'ni har yonda o'yinchoqlarday sochilib yotgan kitoblarni ko'rsatdi. – Qara, dedim... O'zi nari borsa, bir qorovulman... shunday bo'lsa hamki, qo'limga pul tushdimi, uyga kitob tashiyman senga... Sen katta odam bo'lishing kerak, puldor... Meni... Bizni bu jarlikdan qutqarishing zarur! Yo'qsa, bu la'nati hayot, kasallikday yopishib olgan yo'qchilik bizni xarob qiladi, o'z domiga tortaveradi, bolam. Azim, sen katta odam bo'lishing kerak, vunderkind bo'lasan...

Azim otasining hamma gapining ham mag'zini chaqolmas, biroq otasining bor umidi ekanligini fahmlardi.

– ... Sen mening najotkorimsan! Umidimsan...

Otasi teskari o'girilib, deraza raxiga kuchsiz musht tushirdi. So'ng boshini xam qilib, keng yelkalari silkinib-silkinib qo'ydi. Azimning ko'zi jiqqa yoshga to'ldi..."

" ... – Oting nima sening, geniy bola?

– Menikimi?

– Seniki, albatta, o'zimnikini bilaman.

Maktab direktori bilan uning o'rinbosari kulib yuborishdi.

– Azim... – qimtinibgina javob berdi u.

– Yaxshi, Azimboy. Hammaning og'zida sen, o'qituvchilaring alqab charchamaydi. Aytishlaricha, geniy emishsan. Shunga... tanishib qo'yaylik dedik. Kun kelib sen katta odam bo'lasan. Shunda tanimay qolmaysanmi?

Ular tag'in kulishdi. Bu kulgidan direktor xonasining shifti o'pirilib tushadigandek tuyuldi. Har holda, Azim shu o'yda shiftga cho'chib tikildi, so'ng yer chizdi..."

Oliygohda uni hamma "tirik ensiklopediya" desa, bankda "daho" deb atash ommalashdi, bora-bora bu uning laqabiga aylandi. Alalxusus, bolalik yillarida gazetalarda berib boriladigan krossvord, skanvord kabi boshqotirmalarni uzog'i bilan besh daqiqada yechib tashlar, jumboqli savollarni qiyinchiliksiz topardi... Yoshi

ulg'aygach, yillar davomida orttirilgan laqablariga munosib bo'ldi. Garchi yurak xurujidan erta qazo qilgan otasini yo'qchilik girdibodidan xalos etolmagan esa-da, o'zini qutqara oldi. Ammo og'iz to'ldirib baxtliman demoqqa jur'ati yetmasdi...

Ana shu xotira etyudlari bamisoli kino tasmasidek xayolidan lip-lip o'tarkan, o'zini "Eynshteyn jumbog'i"ni yechishga qodirdek his qildi. Tun yarmidan oqqaniga qaramay qo'liga qalam olib, yengini shimardi. Qulay o'tirib olib, topishmoqni yechishga kirishib ketdi.

– Uxlamaysizmi? – yotoqxonadan xotinining biroz nozli ovozi eshitildi.

– Uxlayver. Birozdan so'ng yotaman.

Malika musaffo tongdek pokiza, shudring ingan guldek baxtiyor edi. Erining shu taxlit turishini havas bilan kuzatib turdi-da, keyinroq uxlamoqchi bo'lgan eridan andak og'rinsa ham, kelib Azimning yelkasidan quchdi, tim qora sochlaridan o'pib qo'ydi.

– Chalg'itasan-da... – entikdi Azim yotoqxonaga yo'l olgan xotinini kuzatib.

3

Soat tungi uch. Azim stolga muk tushgan holda "Eynshteyn jumbog'i"ni topishga urinardi. Ammo hadeganda omadi kelavermadi. Odatda, bir ishga qo'l ursa, go'yo u chaynalgan kassetaday to uni yakuniga yetkazmagunicha miyasida

g'ujg'on aylanaverardi. Alalxusus, bu damlarda mag'rurlik hissi butun qalb qo'riga singib, o'y-xayollarini chilvir kabi tang'ib tashlardi. Mana, navbatdagi qog'ozni ham astoydil g'ijimlab axlat qutisiga uloqtirdi. "O'xshamayapti, – xitob qildi u asabiylashib boshini qashlarkan. – Shunchalik mushkul bo'ladi, deb sira o'ylamagandim". Boz ustiga, "dom" biqinida g'uj bo'lvolgan daydi itlarning betinim ulishi, qarama-qarshisidagi soatning mudrab, bir tekisda xurrak otayotgani – chiq-chiqlashi, ba'zan itlarning ulishi tinib, soat chiq-chiqlamay qo'yganday tuyulganda oraga cho'kkan jimlik ham g'ashiga tegardi. So'ng barchasiga qo'l siltadi-da, o'rniga cho'zildi. Biroq qandaydir g'alati va notanish, nafsilamrini aytganda, qachonlardir tanish, ammo ayni fursat unutilgan his ich-etini sichqondek kemirardi. U yoqqa ag'anadi, bu yoqqa ag'anadi. G'ujanak bo'lib yotdi. To'lg'ondi. Uf tortdi. Sanoq sonlarni yo'qladi... Qo'ylar otari guv etib o'tdi... Ammo izlaganini topolmadi. O'rnidan turib, tag'in jumboqni yechishga urinib ko'rmoqchi bo'ldi.

Malika subhi sodiqda uyg'onganida yonida erini ko'rmadi. Bo'lim rahbari lavozimidagi birinchi ish kuni bo'lgani bois ertaroq turgandir, degan o'yda oshxonaga kirib qo'llariga siyoh tomgan, sochlari patalak bo'lib ketgan, nigohlari zo'riqqan va bedor, ko'zlar qontalash, maykachan Azimni bir nimalar yozayotgan holda uchratdi. Stolning tevarak-atrofini don cho'qi-

yotgan jo'jalarday g'ijimlangan qog'ozlar bosib ketgandi.

Ajablangan Malikaning banogoh kulgisi qistadi:

– Ha, rahbarlarga ham osonmas ekan-da.

Azimning qovog'i ko'pchigan xamirday osildi:

– Gapni qisqa qil-da, oshxonaga yo'rg'ala. Tezroq nonushta tayyorla, bo'lmasa... – gapini chala qoldirib, nigohini yana gazetaga tikdi-da, eshitilar-eshitilmas "kechikaman" deb gapini yakunlab qo'ydi.

– Tinchlikmi, Azim aka?

– Ishing bo'lmasin! Senga nima dedim. Tezda nonushta tayyorla. Ishga kech qolaman! – bu gal rostakamiga urishib berdi.

Malika eriga ajablanib qaradi, eri unga hech qachon bu qadar qo'rs-qo'pol muomala qilmaganidan biroz dovdiradi, eshik bo'sag'asida xuddi suratga tushayotgandek qotib qoldi, so'ng lom-mim demay og'ir qadamlar bilan oshxonaga yo'naldi. Nonushta tayyorlashga urinarkan, harakatlari juda sekinlashib ketdi, go'yo vaqt to'xtab qolgandi. U Azimning fe'l-atvoridan mutlaqo bexabar ekanligini o'ylab siqildi. Qulog'i shang'illay boshladi. Ayni shu damda butun uy, o'zi, eri, oshxona va hatto oshxona buyumlari ham alahsirayotganday tuyuldi.

Azim esnaganicha nonushta qildi.

Malika erini kuzatgani eshik oldiga keldi. Shoshilib poyabzalini kiyayotgan Azim shu

damda xotiniga boqqanida uning yosh bolaga o'xshab arazlagan nigohida "Mendan kechirim so'rab, yuzimdan o'pib qo'y" degan so'zlarni uqqan bo'lardi. Boqmadi...

– Yaxshi boring, Az... – Malikaning gapi chala qoldi.

Azim lom-mim demasdan eshikni "qarsillatib" yopib ketdi.

U piqillab yig'lab yubordi...

... – Bugun soat 10:00 da bo'lim xodimlari bilan ilk majlisingiz bor. Tushlikdan so'ng soat ikkida esa "Hamkor-invest" firmasining vakillari bilan uchrashishingiz lozim, – deya o'tkir atir hidiga burkanib kotibasi kirib keldi.

Biroz o'tib ish stoliga o'ndan ortiq papkadagi hujjatlarni qo'yib ketdi. Azim qo'l uchida biroz ishlagan bo'ldi. Ammo erinchoqligi tutib ishlagisi kelmadi. Uning kamdan-kam hollarda ishdan bosh tortishi edi. "G'ayratli yigit, mehnatdan qochmaydi. Menimcha, kredit bo'limini ishonsak bo'ladi... tortadi", – degandi o'shanda bank boshqaruvchisi o'rinbosariga. Kecha yarim tundan beri ko'nglini g'ash qilayotgan "Eynshteyn jumbog'i"ni xayolidan qanchalik chiqarishga urinmasin, buning uddasidan chiqolmadi. Qo'ynidan tartib bilan buklangan gazetani chiqarib yana topishmoqni yechishga kirishdi. "Bu gal, albatta, topishmoqning javobini topaman", deb umid qilgan bo'ldi. Go'yoki topolmasa, izzat-nafsining burni yerga ishqalgan, g'ururi xo'rlanganday

tuyuldi. Tanasidagi butun tomirlarda issiq qon emas, sovuq manmanlik irmoqlari oqayotganini o'zi hali anglab yetmagandi.

Avvaliga kotibasi soat 10:00 da xodimlar bilan majlisi borligini eslatdi, soat ikkiga yaqin esa "Hamkor-invest" firmasining vakillari bilan uchrashuvi borligini yana bir bor yodiga solib xizmat burchini o'tadi. Solishga soldi-yu, baloga qoldi, bechora. Ikki holatda ham Azim unga "Tinch qo'ying meni!" deya urishib berdi. Kotiba joyiga kelib o'tirarkan, o'pkasi to'lib kela boshladi. Odatda, mudom "Ayol bu – mo'jiza! Ularni e'zozlash kerak" deydigan Azimning tush mahaligacha ikkita ayolni besabab yig'lashga majbur qilgani parvoyiga kelmasdi. Zero, o'y-xayollarini zabt etgan xudbinlik chilvirlari tarang tortilgandi. Uning qiyofasida boshqacha Azim namoyon bo'layotgandek edi go'yo.

4

Bir hafta davomida uzluksiz "Eynshteyn jumbog'i"ni yechishga harakat qildi. Lekin har safar urinishlari zoye ketardi. Shu ko'yda bir oyni ham o'tkazdi. Uning nazdida bamisoli taqvim jadvalidan qaysidir oy varag'ini bir zumda yulib olganday o'tdi bu kunlar. Azim inson uchun dahshatli bo'lgan – vaqtni his etolmay qolgandi. O'tgan bir oy davomida xotiniga umuman e'tibor bermay qo'ydi. Xuddi Axborot tanho ya- shaydigandek. Xotini sal og'iz ochadigan bo'lsa

SHIRIN SHAHAR AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI INV № 2021/9-35

jerkib berar, og'zidan yaxshi so'z chiqmaydigan bo'lib qoldi, hatto ichib kelganida xotinini uradigan odat chiqardi. Ammo Malika sabrdan sarg'ayishni ma'qul ko'rdi. Azim ishxonadagi ishlarni ham unutdi. Butun kunni "Eynshteyn jumbog'i"ni yechishga sarflardi. Vaqt o'tgan sayin u qo'pollashib borar, asabiylik uni deyarli har daqiqada "yo'qlardi". Tashqi ko'rinishiga esa chidab bo'lmasdi. Soqollari o'sib, yonoqlari bo'rtib chiqqan, ko'zlari kirtaygan, muzeydagi skeletday qoqsuyak bo'lib qolgandi. Ko'p o'ylayverganidan sochiga oq oraladi. Ishda ham tushlikka chiqmay "Eynshteyn jumbog'i"ni yechishni ma'qul ko'rardi. Tushlik qilmagach, negadir tez-tez boshi og'riydigan bo'ldi. Ammo bora-bora tana ham bunga ko'nikdi chog'i, boshi og'rimay qo'ydi. Baribir, ichini it tirnardi. "Nahotki, men "Eynshteyn jumbog'i"ni yecholmasam?! Axir o'ta bilimdon edim-ku. Bunga nega tishim o'tmayapti? Aqlim o'tmaslashib qoldimikan yo? Bitta Eynshteynning topishmog'ini topolmasam, shuncha o'qiganlarim qayoqqa ketdi unda? Nahotki men dunyodagi ikki foiz bilimdon kishilar toifasiga mansub bo'lmasam? Yo'q, unday bo'lishi mumkin emas. Nima uchun unda odamlar meni "geniy", "daho" deb ataydilar? Nega?!" Azim muvaffaqiyatsizlikka uchraganida alam bilan har gal shu so'zlarni xayolidan o'tkazar, jazavaga tushar, asabiylashardi. Shu kunlarda tez-tez otasi tushiga kiradigan bo'ldi. Tushlari ham bir xil ssenariy-

da kechardi. Tun emish... otasi undan o'n-o'n besh qadamcha narida emish. Yoniga boray desa oyog'i o'ziga bo'ysunmas, baqiray desa, ovozi chiqmasmish. Qandaydir ko'rinmas va baquvvat qo'l uni mahkam tutib turarmish. Bu qo'llardan yulqinib chiqay desa, ular go'yo ombirdek yanada qattiqroq siqarmish... Ko'p o'tmay ularning orasidagi masofa kengayib, o'rtada kichkina soylik paydo bo'libdi. Otasi ham og'iz ochmas, faqatgina o'g'liga g'amgin tikilarmish... Mudom shu joyda uyg'onib ketadigan bo'ldi. So'ng o'z-o'ziga gapiradigan odat chiqardi. Hadeb "Bu xudbinlik emas, bu mag'rurlik emas", derdi.

Parishon yuraverganidan qo'shnilarining bergan salomini ham eshitmasdi. Ular esa ortidan pichir-pichirlashib qolishardi. Asabi rubob torlariday taranglashaversa, balkonga chiqib chekadigan bo'ldi.

Azim yarimlab qolgan sigaretani kuldonga ezg'ilab o'chirdi. Chap ko'zi ko'kargan Malika balkonga chiqib eriga hadiksirab so'zlay boshladi:

– Azim aka... Azim aka, sizga nima bo'lyapti o'zi? Avvallari unaqa emasdingiz-ku, qanday baxtli hayot kechirardig-a?! Azim aka, sizni nima jin urdi? Ro'zg'or ishlariga ham e'tibor bermay qo'ydingiz. Men bilan-ku, umuman ishingiz yo'q... Ozib ketganingizni qarang... Me'yoridan ko'p chekyapsiz, ichyapsiz, hatto... menga qo'l ko'taryapsiz ham...

Malika yig'lamoqdan beri bo'lib erining ortidan quchdi. Azim jahlini zo'rg'a bosib turardi.

– Qo'ying shu topishmoqni... Shu topishmoqni o'ylab topgan Nyutonning uyi kuysin.

Azimning labida zaharxanda tabassum o'ynadi:

– Bu topishmoqni Nyuton emas, Albert Eynshteyn o'ylab topgan, g'alcha.

– Nima farqi bor. Axir bu bema'nilik-ku!

– Bema'nilik?

Azim o'zini tutib turolmadi, asab torlari taranglashib, "g'azab" kuyini ijro etdi. Malikani tag'in do'pposladi.

Saharmardonda uyg'onganida Malika yotoqxonada ham, oshxonada ham, umuman uyda yo'q edi, uning ortidan javonlardagi kiyim-kechaklari, mayin nigohlari, yoqimli tabassumi, xushbo'y iforlari ham ergashib ketgandi.

"Hoynahoy, onajonisinikiga ketib qolgan bo'lsa kerak, – o'yladi Azim. – O'zi ketar yor-yor, o'zi kelar yor-yor".

U bu oilaviy mojaroga jiddiy e'tibor qaratmadi.

– Qaysi er-xotin urishmay, tortishmay yashayapti?! – deb qo'ydi o'z-o'ziga tasalli berib.

5

Shu asnoda oradan yana bir oy o'tdi. Tanishlari uning abgor ahvoliga qarab turib, inson shunchalik ham o'zgarishi mumkinmi, deya ishongilari kelmasdi. Oldingi jasaddan asar ham yo'q. Eti ustixoniga yopishib qolgandi.

Ertalab ishga kelganida yangi kotibasi unga xat borligini aytdi. Oldingi kotibasi uning qo'polligi va jizzakiligiga chidolmay ishdan bo'shab ketgan edi. Maktubni ochib qarasa, suddan ekan. Turmush o'rtog'i ajrashish to'g'risida sudga ariza beribdi. Azimning ichidan zil ketdi. Ikki lunjiga xuddi qizib turgan dazmol bosilganday bo'ldi. Karaxt bo'ldi-qoldi.

Malika Azimni bir oy kutdi. Azim uni qanchalik do'pposlamasin, baribir, erini sevardi. O'zgarishiga umid qildi. Kechirim so'rab kelishini kutdi. Ko'zlarini derazada qoldirib, o'zi divanda yotgancha sho'rqillagani sho'rqillagan. Ammo eridan xat-xabar bo'lavermagach, taqdirga tan berib ajrashishga qaror qildi.

Azimning ko'ngli biroz iyigandek bo'ldi. Xayoli joyiga keldi, karaxtlik tarqadi. "Ertaga-yoq borib Malikani onasinikidan olib kelaman. Baqamti o'tirib hammasini kelishib olamiz. Mening u bilan ajrashish niyatim yo'q. Menga nima bo'lyapti o'zi?"

Biroq ertaga buning mavridi bo'lmadi. Ishxonaga borganida boshlig'i bo'shash to'g'risida ariza yozishini buyurdi. U, nima uchun, deb so'ramadi. Sababi o'ziga besh qo'lday ayon edi. Aksincha, ichida boshlig'iga shu vaqtgacha dumini tugib yubormaganiga tahsin o'qidi, boshlig'i uch-to'rt bor tartibga chaqirganida, dakki berganida yuziga bezbetlik niqobini taqib oladigan bo'ldi. Muhim buyruq va qarorlarni imzolamay

qo'ygan, rasmiy tashkilotlardan kelgan xatlarni bir chetga uloqtiraverardi, oqibatda bo'lim ishlari orqaga ketib qoldi, mijoz hamda hamkor korxonalar bilan esa umuman ishlamay qo'ydi, xodimlar bilan majlis o'tkazmaganiga ham ikki oydan oshdi-yov. Ular o'z bilganlaricha ish yuritishmoqda. Oylik hisobotlar tayyorlanmay qo'ydi. Qo'polligi tufayli deyarli har kuni qo'l ostidagi xodimlarni haqoratlab, ranjitardi. So'nggi vaqtlarda egniga yuvilmagan kir-chir kiyimlarni ilib yurganidan, ulardan badbo'y hid tarqalaverar, kotibasi isqirt boshlig'ini ko'rganida burnini jiyirar, unga yaqin yo'lamaslikka harakat qilardi. Xo'jalik ishlari mudiridan har hafta shaxsiy manfaati uchun bog'lam-bog'lam oq qog'oz va yondaftarchalar olishdan charchamasdi (bularning bari "Eynshteyn jumbog'i"ni yechish uchun kerak bo'lardi). Ishdan bo'shatish uchun bundan boshqa yana qanday sabablar bo'lishi kerak? Xullas, boshlig'i bildirgan ishonch boshida chil-chil sindi.

Azim lash-lushlarini yig'ib, indamay to'ppato'g'ri uyiga jo'nadi. Oylar bir-birini quvlab o'taverdi. Azim esa "Eynshteyn jumbog'i"ni yechmoqqa urinishdan charchamas, biroq uning tinimsiz mehnati hech samarasini bermasdi. Ba'zida u bir haftalar topishmoqqa e'tibor bermay yurdi. Ammo bu jasorat ko'pga cho'zilmadi. Jumboqni yechishga bo'lgan bema'ni ishtiyoq, xudbin qaysarlik va kasallik unga kanadek yopishib olgan-

di. Inson nahotki bir narsaga shunchalik qattiq bog'lanib qolishi mumkinligiga hayron bo'lardi. "Rafiqamni ertaga olib kelaman" degan so'zlarining oxiri yo'q edi. Azim dastlabki oylarda ish qidirmadi. Yig'ib qo'yganlarini sarflab yotdi. Odatda yigirma to'rt soat uyda bo'lar, ba'zida tomoqqa ul-bul xarid qilgani pastdagi do'konga tushib chiqardi. Tilidan va dilidan bir kalom tushmasdi: "Bu xudbinlik emas, bu mag'rurlik emas".

6

Bir kuni Azim behuda isrof bo'lgan qog'ozlarni yig'ib axlatga tashlayotganida ularning ichidan uch oy oldin suddan kelgan ajrim arizasini ko'rib kapalagi uchdi. O'z qarorlarini o'zgartirib kelishlari uchun sud tomonidan ajratilgan vaqt o'z poyoniga yetgandi. Ertaga sud. Har holda, rasmiy xatda ko'rsatilgan sana ertaga keladi. Yo adashayaptimi? Ehtimol. Axir u vaqtni his etmay qo'yganiga ancha bo'lgan-ku. Biroq odatda ko'ngil bir noxushlikni sezganida, uning xatar borasidagi tasavvurlari ro'yobi shu qadar aniq-tiniqlik kasb etadiki, alal-oqibat, ular o'rtasida deyarli farq uchramaydi. Uning hasratga limmo-lim taxminini devorda osig'liq, asl qiyofasini yo'qotgan, chetlari burishib-tirishgan yil taqvimi ham tasdiqlab turardi: ertaga sud! Hech qanday his-hayajonni ifodalamaydigan, qat'iy va biror-bir savolga "non-nasiba" qoldirmagan so'zlar bir-biri bilan chaplashib, go'yo baliqdek

qog'oz uzra suza boshladi. Shu tobda Azimning ko'zlarini yupqa parda qoplaganday bo'ldi... Tuni bilan xotiralar lazzatidan entikib, namiqqan kipriklari qirg'oqlariga uyqu kemasi kelmadi, yaqin yo'lamadi ham.

Ertasi kuni qoq peshinda o'tgan sudda Malikaga arizasini qaytarib olishini aytgan barcha gaplari havoga uchdi. Biroq Azim bo'sh kelmay sudyaga "Ajrashmoqchi emasman!" deb oyoq tirab olmoqchi edi. Har holda, qaysarlikda mulohaza nima qilsin. Ammo xotinining nafrat to'la ko'zlariga boqib turib, unda o'ziga nisbatan hech qanday mehr uchqunini ko'rmadi, u Malika qiyofasida o'zga inson paydo bo'lganini fahmlab qoldi. Taassufki, vaqtni ortga qaytarishning imkoni yo'q. Yo'qsa, dunyo dunyo bo'lmasdi, bani-bashar allaqachon oxirzamonni o'z ko'zi bilan ko'rgan bo'lardi. U taslim bo'ldi. Ikki tomonning roziligiga binoan ularni qonuniy ravishda ajratishdi. O'rtada farzand bo'lmagani ajrimni osonlashtirdi. Nazarida, Malikasiz hayoti ranglidan oq-qora tasvirli televizorga aylanib qolganday bo'ldi.

Ko'pincha barcha narsani nazoratimiz ostiga olishga urinamiz, fursat boy berilsa-da, gohida hammasini ortga qaytarishga haqli va qodirdek his qilamiz. Bu aldamchi hissiyot bo'lib, alamdan diydasi oqarib, o'rtangan ko'ngilga taskin beradi, xolos. Nega deganda, bosib o'tilgan izlarni kecha yoqqan qor qoplab ketganiday, ortga yo'l doim ham bo'lavermaydi, qachonki masala xu-

susiylikdan umumiylikka ko'char ekan, demakki, qayerdadir xohish-irodamiz bilan boshqa shaxsning xohish-irodasi, albatta, to'qnashadi, u bilan hisoblashmay ko'ring-chi.

7

Azimning qismati tarxini chizayotgan taqdiri azalning hech kutilmaganda oq rangli mo'yqalami nihoya qilib, u qora ranglisiga o'tgandi go'yo. U taqdirga, sho'r peshonasiga la'natlar aytib, ichkilikka mukkasidan ketdi. Olti oy davomida alamini ichkilikdan oldi. Kayfi taroq kunlari uydagi hamma jihozlarni (ular ham sanoqli va g'arib ko'rinishga kelib qolgandi), buyumlarni sindirar, biroq barcha narsani har yonga uloqtirishga borgan qo'llari "Eynshteyn jumbog'i" bosilib chiqqan gazetaga kelganda, g'aroyib tezlikda o'z kuchini yo'qotardi. Nari borsa, bir g'ijimlab qo'yardi. Keyin esa xuddi dazmollagandek gazetani qo'li bilan obi-tobida tekislab chiqardi. Oradan ancha vaqt o'tib hovuri bosilgach, yana Albert Eynshteynning jumbog'i javobini izlay boshladi.

Bir kuni bosh egib, Malikaning yashash tarzi qobig'ida yo'qligiga ko'nika olmay qaynonasining uyiga yo'l oldi. "Uylarini sotib, boshqa shaharga ko'chib ketishgan... Aynan qayerga ekani hech kimga ma'lum emas", – xuddi muzeydagi antiqa eksponantga obdon razm solayotganday sinovchan baqrayayotgan ko'zlarning andak pastki

qismida to'xtovsiz ochilib-yopilayotgan og'izdan o'ziga kerakli shu so'zlarni ilib oldi. "Kimsiz? Ismingiz nima? Ularga qarindoshmisiz? Nega ularni qidirib yuribsiz?" kabi savollarni havoda muallaq qoldirib, kelgan yo'liga ravona bo'ldi.

Azim birin-ketin uchragan ruhiy zarbalardan so'ng gangib yurdi. Boshini qayga urishni bilmasdi. Bu orada yig'ib qo'ygan pullarining ham tagi ko'rinib, dasta-dasta pullar ham xuddi o'ziga o'xshab tirriqlashib qoldi. Azim dastlab besh-oltita tashkilotga ish so'rab bordi. Ish beruvchilar uning soqolli yuziga, to'zigan kiyimlari, yag'iri chiqib ketgan shimiga boqib, uni haydab solishdi. Keyin u ishtahasini pasaytirib maktab, bog'chalarning hisobchi lavozimlariga umid bog'ladi. Tashqi ko'rinishi bergan ilk taassurotni suhbati bilan tumanday tarqatsa-da, biroq ta'lim muassasasi rahbarlari uning ish faoliyati to'g'risidagi hujjat bilan yaqindan tanishganlarida, qanday ayb ila bo'shatishganliklari ma'lum bo'lgach, unga "sokrasheniya" kelgan deya oppo-oson va siyqasi chiqib ketgan bahona bilan eshiklarini yopishdi. Azim ketma-ket yopilgan eshiklardan endi buyog'iga o'z mutaxassisligi bo'yicha hech bir joyda qo'nim topolmasligini angladi. Keyinchalik pul topish uchun har qanday ishga rozi bo'ladigan bo'ldi. Mardikorlik qildi, qurilishlarda ishladi. Har qanday pulning isi taralgan barcha teshikka burun tiqdi. Tadbirkor qo'shnisining mashinasini ijaraga olib, kirakash-

lik qilishni boshlagunicha hech bir ishda qo'nim topmadi. Avvaliga ishlari biroz yurishgandek bo'ldi. Nahot, uning kelajak yo'lini belgilayotgan ilohning qora mo'yqalami yozishdan to'xtagan bo'lsa? Biroq Yursa ham, tursa ham nuqul xayolida "Eynshteyn jumbog'i"ni o'ylayverganidan bir marta mashinani yo'l chetidagi beton to'singa urib oldi. Beton – beton-da! U mashinaning old tomon o'ng qanotiga go'yo qog'ozni g'ijimlaganday qattiq shikast yetkazgandi. Nima ham derdi: "Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi". Uyini sotib pulning bir qismini mashinani ta'mirlash uchun ustaxonaga berdi. Qolgan pulga yaqinlaridan qarz-qavola qilib olgan pullarini qo'shdi-da, shahar chekkasidagi ovloq bir joydan ko'rimsizgina, sharoitlari o'ziga yarasha bir xonali uy sotib oldi. Buni uy deb atash bamisoli bir taviyani sohibjamol deb ataganday gap. Ko'proq kulbaga o'xshab ketardi. Shu taxlit yillar o'tavergach, "Eynshteyn jumbog'i"ni yechishga bo'lgan istagi pasaya bordi. Azim shu yo'sinda o'n olti yil kirakashlikda umrguzaronlik qilganini ham payqamay qoldi. Hech kim uning qiyofasiga boqib, yoshi qirq beshda deb sira o'ylamasdi. Oppoq sochlari, ajin bolalagan yuzlari, qartayib qolgan ko'zlariga boqib, hech ikkilanmasdan oltmishni bersa bo'lardi. Shu yillar ichida onda-sonda tushiga mashhur olim, fizik, ixtirochi Albert Eynshteyn kirib turardi. Sochlari oppoq, nigohlari teran olim har safar Azimning

ustidan kulgani kulgan: "Ey notovon banda, oddiy bir topishmoqni yechaman deb umring o'tdi-yu, yana o'zingni "daho" deb hisoblashingga o'laymi?.. Boshdan baland sakrab bo'lmaydi... Falle runter aus dem himmel und schleife deine kenntnisse ... – Eynshteyn goh o'zbekcha, goh nemischa so'zlar, yana tushunarsiz tilda allambalolar gapirardi. – Shuni bilib qo'yki, bu aqling bilan hech qachon topishmog'imni yechishga qurbing yetmaydi. Jo'ja ulg'ayganida burgut emas, tovuq bo'lganidek, sen ham hech qachon daho bo'lolmaysan, aksincha, keksayganing sari aqliy darajang pasaya borayapti. Tushundingmi?! Xa-xa-xa!". Bu tushlardan so'ng olovga suv purkalgandek Azimning ishtiyoqi gurillab o'tolardi. G'azabi qaynab, "Topishmoqni, albatta, yechaman" deya o'ziga-o'zi va'da berardi.

Aprelning ajoyib tonglaridan birida istarasi issiq jurnalist yigit Azimning mashinasiga o'tirib qoldi. Yo'l davomida suhbatlashib yaxshi chiqishib qolishdi. Jurnalist mashinadan tushar chog'ida Azimga o'zlariga tegishli gazetaning yangi sonini berishni unutmadi. Azim kechga tortib uyga kelgach, zerikarli kechki ovqatdan so'ng televizorda futbol ko'rdi. Ko'p o'tmay undanam bezidi. Deraza yaqiniga kelib, tashqariga qiyo boqdi. Ko'zlari tevarak-atrofni ko'rmas, aksincha, ular o'y-xayollarida chuvalashib yotardi. Bezovta edi. Ich-ichidan allaqanday noxushlikni seza boshladi. O'ylab qarasa, hammasi joyi-

da. Xavfsirashga hojat yo'q. Biroq qandaydir ko'ngilxirachilik yuz beradiganday edi. Chuvalashib yotgan xotiralari qarmog'iga mashina xo'jayiniga ijara pulini to'laydigan muddat yaqinlashib qolgani ilindi-yu, ta'bi yanada xiralashdi. Deraza oldida tik turishdan bezib, yonboshladi-da, haligi gazetani ko'zdan kechira boshladi. O'rta sahifani ochganida qo'lidan gazeta shilq etib tushib ketdi. Ko'zlari kosasidan chiqquday bo'lib, sanchilgan yuragining og'rig'idan bukilib qoldi. Gazetada oradan o'n olti yil o'tib o'sha "Eynshteyn jumbog'i" gazetxonlar hukmiga havola etilgandi. Oradan o'n olti yil o'tib-a?! Azim bu topishmoqni yechmay, unutganiga bir yildan oshgandi. Ammo gohida tunda siqilgan paytlari topishmoqni yechib ko'rishni kanda qilmasdi. Negaki bu narsa o'n olti yildan buyon takrorlanaverib odat tusiga kirib ulgurgandi. Azim cho'ntagidan dag'al hamyonini chiqardi. Hamyon haddan tashqari qo'pol, beo'xshov tikilgan, eskirib ketganidan chirk boylagandi. U hamyondan ko'p yillik hamrohi – buklangan gazeta qiyqimini chiqardi. Gazeta parchasi allaqachonlar sarg'ayib ketgan, buklanib siyqalangan chetlari kirmato bilan yelimlab qo'yilgandi. Undagi harflarning rangi o'chgan, qog'ozi yoyilib ketgandi.

– Endi menga eskisi kerak emas, – yuzi g'amgin tus olib, hayotini barbod qilgan maqolani axlat qutisiga uloqtirdi.

Gazetada qaytadan bosilgan "Eynshteyn jumbog'i"ni hafsalasizlik bilan yecha boshladi. Biroq qo'l uchida amallarni bajararkan, ular o'z-o'zidan osongina yechila boshladi. Azim peshonasini tirishtirib, endi astoydil kirishdi. Birozdan so'ng "Eynshteyn jumbog'i"ni yechishga muvaffaq bo'ldi. "Nega javobi to'g'ri chiqdi?" Basharti bu savolni o'ziga 16 yil avval berganida, shubhasiz, kulaverib ichagi uzilgan bo'lardi. Biroq ayni vaqtda xursand bo'lishdan ko'ra ko'ngli ma'yus tortib qoldi.

– Nega javobi chiqdi?.. Yoki oradan 16 yil o'tib, aqlli bo'lib qoldimmi?.. Hech narsaga tushunmayapman, ey Xudo!.. O'zing meni iymondan ayirma... Aslo bunday bo'lishi mumkin emas...

U tushunmovchilik changalida ayovsiz va berahmlarcha ezg'ilanardi. Sarosimaga tushib, ishonqiramagan nigohda topishmoqning javobini tag'in tekshirib chiqdi. Yo'q, adashmabdi. Nihoyat 16 yillik izlanishlardan so'ng "Eynshteyn jumbog'i"ning javobini topibdi-da... Shunday ekan, nega xursand bo'lmayapti. Qani o'sha uzoq kutilgan halovat, mag'rurlik nashidasi? Shu payt-da Albert Eynshteyn mashhur tilini ko'rsatib tushgan surati romidan og'ib o'tib, to'ppa-to'g'ri uning qarshisiga keldi-da, Azimning bo'yinidan bo'g'gandek bo'ldi, ko'z oldi qorong'ilashdi. Nafasi siqilganday og'zini kappa-kappa ochdi. Peshonasidan reza-reza bo'lib ter oqdi. Barchasi shubhali. 16 yil davomida ertangi kun bilan

yashab kelganiga topishmoqni yechishga bo'lgan umidsiz maqsad sabab bo'lgandi. Mana, topishmoqni yechdi ham. Endi u nimani maqsad qilib yashaydi? Nimaga intiladi? 16 yilning deyarli har daqiqasida "Eynshteyn jumbog'i"ning savollariga tikilaverib-tikilaverib, uning har bir so'zi, har bir harfi yod bo'lib ketgandi. Tunda uning uyqusini buzib, topishmoqning istalgan joyidagi so'z yoki qatorni so'rang, u bir zum ham talmovsiramay aytib bergan bo'lardi. Bu jumboq uni tunlari ham, tushlarida ham bezovta va ta'qib qilardi. Yangi gazetadagi topishmoqda esa bir so'z erish, o'zgacha tuyuldi. Yugurib borib biroz oldin axlat qutisiga tashlagan 16 yillik "qadrdoni"ni qo'liga oldi va yangisi bilan solishtira boshladi. Barcha savollar to'g'ri. Lekin eski gazetada topishmoqni yechishga ko'mak beruvchi so'zlarning biri, ya'ni "Norvegiyalik havorang uyda yashaydi" degan so'z yangi gazetada "Norvegiyalik havorang uy oldida yashaydi" deya yozilgandi. "Nega bular bir-biridan farq qilayapti?" xo'rsindi u. Fursat o'tmay boshi devorga urilgandek bo'ldi. U hammasini tushundi. Hamma, hammasini! Aslida yordamchi so'z "Norvegiyalik havorang uy oldida yashaydi" bo'lgan. Ammo eski gazetada birgina "oldi" so'zi tushib qoldirilib, katta xatoga yo'l qo'yilgan. Shuning uchun ham har gal javob to'g'ri chiqavermagan. To'g'ri ham chiqmasdi-da!.. Birgina "oldi" so'zi emas, unga qo'shilib Azimning 16 yillik umri ham tushib qolgandi. .

O'TMISH KO'Z YUMGAN VOQEA

"Telefonlar-ku simlardan ozod bo'ldi, biroq endi biz – bani-odamzod unga tobemiz. Ilgari simlarning pishiqligidanmi yoxud o'zga sababdanmi, ular huda-behudaga dod-voy solavermasdi. Endi-chi, har o'n daqiqada diydoriga to'ymasang, yuz-ko'zidan silab-siypalamasang, uniyam, seniyam ko'ngling tinchimaydi: alo-alo, alo-alo!"

U bugun tongdan beri borligini hadeb eslatayotgan telefonini o'chirib qo'ydi. Efir payti noqulay ahvolga solmasin.

"Yoki yaqin yillar ichida odamlarga kerakli zotga aylandimmikan, tag'inam bilmadim..."

– Bo'ldi, aka. Kiraverishingiz mumkin. Mana hujjatlaringiz.

Egnidagi korjomaning ko'krak qismiga sariq rangli iplar bilan "Security" so'zlari tikib-bitilgan navqiron yigit yashil tugmachani bosib, kiraverishdagi to'siqni ochdi.

– Xonalarini bilasiz-a?.. Yo'q deng... Unda hozir hovlidan to'g'ri kesib o'tib, chap tomondagi binoga kirasiz. Kirgan zahotingiz o'ng tomonda zina bor. Zinadan uchinchi qavatga ko'tarilasiz. Yo'lakdan chapga burilasiz. O'ng tomondagi beshinchi eshik...

"So'z o'yini qildimi? Chap, o'ng, chap, o'ng... Rosti, hech nimaga tushunmadim. Adashib-uloqib yurmasam edi... O'zi shu zud-zarilmidi

menga? Qog'ozlarimga ko'milib... "Yo'q!" deyish shunchalar qiyin ishmi? "Ishim ko'p" desang, birov yoqangdan olarmidi? Doim shunaqa, temirni qizig'ida bosmay, oradan vaqt o'tib sovigach, "unday deyish kerak edi", "bunday deyish kerak edi" deb ming'illab yuraman".

Aprel – ayol. Beqaror, jumboq, makr-hiylagar va jozibali. Subhi-sodiqdan tabassum qiladi. Yuvinish xonasida, nonushtada, kiyim javonida, ko'zguda, har bir nigohda mehr-muhabbat jilva qiladi, hayotga tashnalik ufurib turadi. Hatto oyoq kiyimingni kiyayotganingda ham beixtiyor, tushunarsiz va ma'nosiz jilmayasan. Yengil shabada egningdagi kiyimlarni qitiqlab o'tadi. Avtobus bekatiga yetar-yetmas esa, aprel qovog'ini uyib, tundlashadi. Bola nomaqbul ish qilib qo'ygach, otasiga ham najot, ham qo'rqinch aralash boqqandek, osmonga cho'chibroq tikilasan, shu tobda miyangda yashinday ikkita fikr yonib-o'chadi: "Yomg'ir yog'mas-ov", "Soyabonni unutibman". Yomg'ir yog'ish-yog'masligiga oid xavotirlar bamisoli poyabzalingga yopishgan loy parchasidek kayfiyatingga muqim o'rnashib oladi. Avtobusda ham poyabzalingdagi xavotir parchasi tushib qolmaydi. Aprel ko'z yosh to'ka boshlaydi... diydasi to'lmaganmi, ho'ngrab-ho'ngrab yig'laydi... Soyabon olganmisan yoki yo'q, aprelning ishi yo'q... shalabbo bo'lib ishxonangga yetib olasan... aprel tabassum qiladi, soliq qovoq-tumshug'ingdan cho'chib turgan

kompyuter monitoriga derazadan aprelning zangori, iliq mehri osilib tushadi, chehrang yorishadi...

"Qo'ng'iroq qilganida telefonga javob bermagan ma'qul edi-yu, biroq javob bermasang, erinmay kelaveradigan odati bor. Jurnalistlarga tekkan kasal – aytaveradi, aytaveradi, oxir jondan o'tgach, "xo'p" deb qutulganing-u tutilganingni sezmay qolarkansan. Yigirma daqiqalik suhbat devdimi? Yigirma daqiqa-ya! Til bilan aql-farosatning ne ishi bor? Tilni tafakkur jilovlay bilmagach, menga yo'l bo'lsin... Ali Shahoniy haqida respondent bo'lib yigirma daqiqa gapirishning o'zi bo'ladimi, o'zi u haqda og'iz ochadigan ma'lumot yo'g'-u... Xo'p, mayli, nima qilardik. Orolga tushdik, qayiq esa ortiga qaytdi... Xo'-sh-sh-sh! Oldinda yigirma daqiqa turibdi. Hammasini hisob-kitob qilish lozim. Rejissyorning "boshladik" degan ishorasi... jurnalistning savollariga ketadigan vaqt – uch daqiqa, gapni uzoqdan boshlab, bugungi ilmiy izlanishlar, sohadagi muammo-yu yutuqlar, so'ng Ali Shahoniy shaxsi va ijodiy faoliyati haqida besh daqiqa. "Xo'sh", "ta'kidlash joizki", "albatta", "ma'lumki", "shuni alohida aytish kerakki" kabi nutqni bezaydigan so'zlarga bir daqiqa... jami qancha bo'layapti? To'qqiz daqiqa! Oldinda yana o'n bir daqiqa mavjud... Suv! Stolga suv qo'yisharmikin... qo'yishar, kamida besh-olti bor suv ichish mumkin, shoshilmay: bir daqiqa... Savoliga savol bilan javob berib, jurnalistni yanada ko'proq gapirtirish mumkin:

ikki daqiqa. Jami: o'n ikki daqiqa, yana sakkiz daqiqa! Boshqa vositalar qolmagan ekan, imkon qadar suhbatni cho'zish kerak"...

... Bir xil sur'atdagi nog'oralar gumbir-gumbiri olamni tutdi. Ora-sira qat'iy ohangda jangovar hayqiriqlar yangrardi, nogoh kelgan selday qo'shindagi askarlarning son-sanog'i yo'q, ular to'rt tomondan qal'ani qurshab olishmoqda edi. Olis-olisdan qo'shin arang siljiyotganday, askarlar-u otlar toliqqanday ko'rinar, biroq o'rtaliqdagi masofaning darpardasi olib tashlansa, dushman qo'shinining otlari ming farsangdan ortiq yo'l bossa hamki, toliqish ne ekanin bilmas, qo'shin ham shiddat bilan olg'a intilardi. Qur-atrofni jizg'anak qilib kuydirayotgan jaziramada askarlarning boshlaridagi dubulg'alar, qo'llarida tutgan qurol-aslahalari ko'zni qamashtirgudek yaltirardi. Shu shiddatda olg'a intilaverishsa, hademay qal'ani batamom qurshab olishadi. Qal'a kichikroq bo'lsa-da, ammo baland devorlar bilan o'rab olingani bois g'oyatda mustahkam istehkom edi...

... Telekamera – ayol chehrasi. Tun bo'yi sevgan yoringga qalb izhorini so'zma-so'z yod olasan, xotiraga mahkam muhrlab, dilga tugasan. Ertasiga hayajonning qo'lidan tutgancha visoliga oshiqasan, biroq ko'zing yuziga tushadi-yu, virusdan zararlangan kompyuter diskidek xotirangdagi barcha so'zlar o'chadi-qo'yadi... Mana, u bilan ilk bor nigohlar to'qnashdi-yu, xotiram

qisqa fursatlik koma holatiga tushdi, til tishlar qamalida qolib ketdi: Ali Shahoniy Hisor tog'lari sari uchdi... Mumtoz adabiyot, uning tarixi Qashqadaryo daryosida oqdi...

Buni sezgan boshlovchi vaziyatni o'nglashga urindi:

– Haqiqatan, o'zbek xalqi boy adabiy yodgorliklarga ega. Shu boisdan, o'zbek xalqi madaniyatining katta va ajralmas bir bo'lagi o'zbek adabiyoti ekani bejizga emas, – deya u tarix fanlari doktori, professor Muhammad Abdullayevga ma'noli qarash yo'lladi. Bu nazariga tabassumini ham ilova qildi. Albatta, tabassum – teletomoshabinlar uchun atalgan chalg'ituvchi manera edi. Nazarida esa "Siz, axir kimsan professor odamsiz, o'zingizni qo'lga oling", degan ochiqdan-ochiq, yalang'och ta'na mavjud edi. Qanchalik og'ir bo'lmasin, qanchalik og'ir botmasin, buni payqamaslik uchun kishi juda go'l yoxud o'ta befarosat bo'lishi lozim. – ... Sizga ma'lumki, X–XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida o'ziga xos bir davrni tashkil etadi. Bu davr barcha sohalarning rivoj topishi, ilm-fanning yuksak taraqqiy etishi bilan ahamiyatli. O'rta Osiyo xalqlari me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, o'ymakorlik, musiqa kabi sohalarda katta "sakrash"ni amalga oshirdi. Shu bois ham X–XII asrlardagi O'rta Osiyo madaniy yuksalishini Uyg'onish davri, ya'ni "ilk Uyg'onish davri" deb atashga to'la asoslimiz.

– Fikringizga to'liq qo'shilaman... – Muhammad Akbarovich telekameraga qaytib qiyo boqishga jazm etmadi. U boshlovchining qiziqqon, sarg'ish yuziga, yaltur-yultur engil-boshiga, har tarafdan o'rab olgan projektorlarning o'tkir nurlari akslanayotgan stolga, parket polga tez-tez ko'z tashlab, o'ziga maqbul va qulay panohgoh – bir nuqta topmagunicha talmovsiradi, nigohlari tentiradi. – ... XIII va XIV asr avvalida Markaziy Osiyo xalqlari qayg'uli davrni boshidan o'tkazdi... Nega deganda, bu davr mo'g'ul istilosi bilan aloqador. Shuning uchun ham bu davrdagi tarixiy sharoit, madaniy hayot, san'at va adabiyot mo'g'ul bosqinchiligi bilan uyg'un holda tadqiq etiladigan murakkab bir jarayon sanaladi. Eng muhimi, bu davr hayotini har tomonlama tasavvur qilish, o'rganish uchun manba bo'luvchi asarlar anchani tashkil etadi. Inchunin, Rashiddinning "Jome ut-tavorix", Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy", Banokatiyning "Ravzat-ul-asbob...", Hamidulloh Qazviniyning "Nuzhat al-qulub" asarlari, shu jumladan, Batuta, Vamberi, S.Tolstov singari tarixchi-olimlarning qaydlari ham ulkan ahamiyatga ega.

Muhammad Akbarovich beixtiyor qo'l soatiga qaradi: oradan to'rt daqiqa o'tibdi. Hali suhbatning asosiy mag'zi – Ali Shahoniy mavzusiga o'tmay turib, to'rt daqiqaning bahridan o'tildi, oldinda yana o'n olti daqiqa... eplasa bo'lar, chamamda.

– Albatta, biror-bir adabiy-tarixiy voqea-hodisani tadqiq etish, o'rganish o'ta mashaqqatli va kishidan katta tayyorgarlik kutadigan muhim jarayondir...

Muhammad Akbarovich nigohini boshlovchidan uzib, chinni piyoladagi soviy boshlagan ko'k choyga tikdi. So'ng uning savoli tugashini atayin kutib o'tirdi. Boshlovchi gapdan qolib, unga "gal sizniki" ma'nosida tikilganida, u yana piyolaga nazar soldi. "Choy ichish zarur. Ham hayajonni bosadi, ham vaqtni cho'zadi".

– Tariximizdagi har bir davrni, o'sha davrda yashab ijod etgan har bir ijodkorni o'rganish ham oson kechmaydi, – dedi u piyoladagi choyni uzoq, shoshmasdan ho'plab bo'lgach. – Ba'zida butun bir asr adabiyoti haqida ma'lumot, fakt topishning imkoni bo'lmaydi. Nimayam qila olardik, hech bir manbaning o'zi bo'lmasa! Ana shunday pallalarda adabiyotshunos olim, tarixchilarning aql-farosati, ziyrakligi asqatadi. Quruq gaplarni qo'ya turib, misollarga o'tsak... Masalan, Xorazmiyni olaylik, u XIV asrda yashab, turkiy va forsiy tilda ijod etgan shoir. Biroq bizga uning asosan o'zbek, qisman tojik tilida bitilgan birgina "Muhabbatnoma" asari yetib kelgan. Bo'ldi... U o'zi kim? Qayerda yashab ijod qilgan? Xullas, savollar ko'p, javoblarni esa kuppa-kunduz kuni chiroq yoqib ham topa olmaysiz. Ammo! Uning tarjimai holi haqida ba'zi ma'lumotlarni shu asaridan bilish mumkin. Holbuki, uning asl ismini

ham bilmaymiz. Taxallusidan bilish mumkinki, shoir – xorazmlik. Biroq asar Sirdaryo yoqalarida bitilgan. Shu o'rinda, bir jihatga e'tibor qaratish joizki, faqat Amudaryoning Orolga quyiladigan joylarigina emas, Sirdaryoning dengizga tutash bo'lgan hududlari ham Xorazm deyilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Shu boisdan, "Xorazm" degan joy nomi anglatgan hozirgi tushuncha bilan XIV asrdagi hudud bir-biridan keskin farq qilishi tabiiy holdir. "Muhabbatnoma"ning esa atigi ikki nusxasi bizgacha yetib kelgan: asarning ikkala nusxasi ham Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi...

...Yuz minglab askarlar oyog'i ostida qolgan zamin beomon toptalar, bo'g'iq ingrar, larzaga kelar va go'yo uning yuzida sun'iy zilzila hosil bo'lardi. Har yerda guvohi bo'lib turgan qo'rqinchli manzaradan azoblangan ko'yi gulxanlar charsillab yonar, g'ira-shira tun bag'rida, alanga ichida qolgan qal'a, begunoh kishilarning dod-faryodi, jang maydonidagi hayqiriq, ingranishlar, qilichlarning bir-biriga urilgandagi jaranglar, og'zi ko'piklanib pishqirayotgan, vahimali kishnayotgan otlar galasi... Istehkomning to'rt darvozasi oldida ayovsiz jang-u jadal tinay demasdi. Palaxmonlar qal'a devorlari-yu darvozalarni betinim toshbo'ron qilar, manjaniqlar-u arradalar ham istehkomning irodasini sindirishga, bukishga zo'r berib tirishardi. Shu tobda ko'kish osmonda qora-qora nuqtalar

ko'zga tashlanib, bir muddat ko'rinib turdi, qal'a himoyachilari bu ne alomat ekanini anglab yetishguncha, o'qlar yomg'iri ularning ustiga yopirildi. Birin-ketin askarlarning og'riqdan ihragan bo'g'iq ovozlari eshitila boshladi...

... "Soya – insonning eng qabih o'y-fikrlari, mudhish g'oyalari, zulmati, tuni, ko'nglining qora-quyqasi. Har holda, men shunday o'ylayman, shunday tasavvur etaman. U haqiqat tig'i – shaffof quyosh nurlari yuz ochganda adolat, soflik, mehr-muhabbat nigohiga dosh berolmay inson tanasini, qalbini tark etib, uning ortiga berkinadi, yer bilan bitta bo'lib, zim-ziyo tundek qop-qora tusga kiradi. Haqiqat yuz o'girgach, o'sha qora quyqa tag'in odamzod tani bilan birlashadi, ko'ngliga singib ketadi. Ana shunda qalbdagi sof, samimiy tuyg'ularni buzg'unchi, vayronkor va ko'r tuyg'ulardan ajratib bo'psiz. Haqiqat – boqiy, uning tig'i bo'y ko'rsataveradi, soya ham berkinaveradi, ammo tanni tashlab ham ketmaydi. Yursangiz ham, yugursangiz ham, qochsangiz ham, yulsangiz ham, urib-tepsangiz ham u siz bilan, hech yoqqa ketmaydi... Biroq faqatgina qalbida haqiqat va odamiylik qasrini bunyod etgan inson zotigina bunday soyalardan abadul-abad xalos bo'lgan. Qolganlarimiz esa..."

Boshlovchining navbatdagi savoli Muhammad Akbarovichning xayolini to'zg'itib yuborib, uni hushyor torttirdi.

– XVII asr o'zbek adabiyotida hajviy-tanqidiy yo'nalishning rivoj topishi va xalqona uslubning yaralishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan shoir Turdi Farog'iyning nomi ham, bugungi kunda bizga ma'lum bo'lgan o'n ikki g'azal, besh muxammas va bir fardi ham 1925-yili tasodifan qo'lyozmalar orasidan topilib kashf etilgan ekan. Bu topilma o'z davrida ko'pgina adabiyotshunoslarning, jumladan, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat kabi munaqqidlarning ham e'tiborini tortgan. Shu haqda fikringiz?

– Farog'iyga o'xshash hassos shoirlar ijodi son bilan emas, aksincha, salmog'i bilan qimmatlidir. Inchunin, XVIII asr o'zbek adabiyoti ham boshqa davr va asrlarga nisbatan ancha kam o'rganilgan. Ma'lumotlar juda oz... Shunday bo'lsa-da, fidoyi ustoz adabiyotshunoslarning sa'y-harakatlari bilan o'sha asrdagi Nishotiy, Ravnaq, Mavlono Kiromiy, Roqim, Yahyo, Umar Boqiy, Nurmuhammad Andalib, Muhammad Tohir Xorazmiy singari ijodkorlarning nomlari, ular haqidagi ba'zi ma'lumotlar yuzaga qalqib chiqdi. Aynan XVIII asrning II yarmida Xorazmda ijod qilgan shoir mavlono Kiromiy ijodiyotiga to'xtaladigan bo'lsak, shoir Muhammadniyoz Nishotiy o'zining "Husni dil" dostonida bu asarni yozishda ustoz Kiromiydan ilhomlanganligini eslatib o'tadi, mashhur shoir, tarixchi va tarjimon Shermuhammad Munis. esa o'zining "Munis ul-ushshoq" devonidagi "manga" radifli

hasbi hol g'azalida unga pirlik-ustozlik hukmida bo'lgan o'ndan ortiq buyuk shoirlar qatorida Kiromiyni ham hurmat bilan tilga oladi...

– Qiziq ma'lumot, shu kunga qadar Kiromiy degan shoir haqida eshitmagan ekanman...

Muhammad Akbarovich boshlovchining izohini e'tiborsiz qoldirdi:

– O'z navbatida, bu dalil va e'tiroflar Kiromiyning diniy-islomiy ilmlarda, tasavvuf she'riyatida anchayin yuqori mavqeni egallagan mo'tabar zotlardan biri bo'lganligidan dalolat beradi, – dedi u yarimlab qolgan piyoladagi choyni ohista qo'liga olarkan. – Ming afsuski, bugungi kungacha Kiromiy qalamiga mansub barcha asarlarga ega emasmiz. Ular hamon odamzod nazaridan pana joyda, topilganicha yo'q... Bundan tashqari, jiddiy ilmiy izlanishlar, adabiy o'rganishlar ko'plab ikkilanishlarga oydinlik kiritmoqda.

– Misol uchun qanday?

"Choy sovib qolibdi" xayolidan o'tkazdi olim.

– Misol uchun, shu vaqtga qadar "Gul va Navro'z" dostoni fors va o'zbek tillarida ijod qilgan Lutfiy qalamiga mansub hisoblanardi, biroq olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, bu dostonni Xorazmda umr kechirgan, biroz muddat Hirotda Umarshayxning o'g'li Sulton Iskandar huzurida falsafiy bilimlarni yaxshi egallagan Haydar Xorazmiy bitgan ekan...

... Hukmdor vayronaga aylanayotgan qal'a yaqinidagi yalanglikda chodir tiktirdi. Urush hali

yakun topmasidan tilla chiroq osilgan shohona chodirida g'alaba ziyofatini boshlab yubordi.

Oradan biroz vaqt o'tib, chodir ortida choparning qorasi ko'rindi:

– Olampanoh qutlashga ijozat bering! – dedi u chuqur-chuqur nafas olgancha. – Mana, nihoyat o'n yetti kunlik qamaldan so'ng qal'ani qo'lga olishga musharraf bo'ldik.

– Albatta, onhazrat, bu g'alaba ham tengsiz sarkarda ekaningizni yana bir karra isbotlagay, – xushomad qilgan bo'ldi bosh vaziri.

Jikkakkina gavdali hukmdor xushxabardan quvonib, amirkon etigini shapatilab qo'ydi, so'ng oq oralagan quyuq soqollarini huzur qilib siladi, shohchodir tirqishidan kunpayakun bo'lgan qal'aga qarab g'alati jilmaydi-da, "Tez orada mening sheryurak, yo'lbars shijoatli navkarlarim butun shaharni qo'lga kiritishadi" deb ming'irlab qo'ydi.

Ko'p o'tmay to'rt tarafdan shodon hayqiriqlar yangray boshladi. Tor-mor etilgan qo'shin askarlarini qatl maydoniga bir safda tizishdi. Hukmdor qal'a qo'liga o'tgan bo'lsa-da, shohchodirida qolishni afzal bildi, u xufiyasining "Shaharda hammayoq toza" degan xabarini intiq bo'lib kutardi. Har holda, uning jonini Jabbordan so'rab, intiqom qilichini qayrab yurgan soyalar oz emas. Uning shohchodirdan chiqmay bergan ishorasi bilan qatlga ijozat berildi. Bu ishorani nog'oralarning gumbir-gumbiri ham tasdiqladi.

Maydonning qoq o'rtasida joylashgan supaga suyangan, ma'nosiz nigohlari bilan atrofda aylana hosil qilayotgan tomoshatalab odamlarni kuzatib o'tirgan jallodga shu zahoti jon kirdi, harakatini boshladi...

Hukmdorning xufiyasi ikkita xabar keltirdi. Hukmdor bu xabarlarning muhim ekanimi yoxud intiq kutib yotgani uchunmi, shohchodirdan shoshilib chiqdi. Eng ishongan yigitlaridan Hasan xojasi oldida tiz cho'kdi:

– Amringiz vojib bo'ldi, onhazrat. Shahar chinniday top-toza... – dedi-da, navkarlariga imo qildi.

Shohchodir oldidagi mash'ala yoritishga ojizlik qilgan masofadan ikki navkar yetovida og'iz-burni qon, sochlari to'zg'igan, engil-boshidagi libosi bir ahvolda bir chol ko'rindi. Uni majburlab hukmdorning yonida tiz cho'ktirishdi.

– Yo alhazar! Uni kim bu ko'yga soldi? – dedi hukmdor cholga yasama qayg'urib. – Xo'sh, so'yla, kimsan?

– Bandaman, – dedi chol unga tik boqqancha zaharxanda jilmaydi.

– Sen kimning bandasi bo'lursan, baxtiqaro? – hukmdorning qoshlari chimirildi.

– Yaratgan egamning!

Hukmdorning qovog'i osildi. Hasan unga poy-patak bo'la boshladi:

– Farosatsizligim uchun bir qoshiq qonimdan kechiq, onhazratim. Bu chol ushbu diyorning

eng mashhur, eng buyuk shoiridir. Aytishlaricha, unga yetadigan qalam sohibi hali tug'ilmagan emish. Uni Yusuf Boqiy deb atashar ekanlar. Sizning buyuk g'alabalaringizni, tengi yo'q hukmdor ekaningizni u tarix sahifalariga zarhal harflar bilan bitajak. Toki butun dunyo sizning qudratingizdan lol qolsin.

– Inshoolloh, – dedi chehrasi biroz yorishib hukmdor. – Endilikda bu chol buyuk ishlarimni bitguvchi kotibim bo'lib qoladi.

"Yo rabbim, bu ne ko'rgilik?! Bu ne sinov bo'ldi? Mana bu ikkisiga qarang... Sendan so'ramay-netmay, rozi-rizoligingsiz Yaratgan peshonangga bitgan qismatingni hal etib turishibdi. Tavba-tavba!.. Allohim, bu dunyoda har bir mo'min-musulmonni teng qilib yaratgansan, hech bir zot qullik yoxud hukmdorlik tamg'asi bilan tug'ilmagan..."

– Aslo! – anchadan beri jim turgan chol – shoir Yusuf Boqiyning fikri-zikridagi g'azab, alam va g'urur tuyg'ulari omuxta bo'lib, nidoga aylandi. Yoshiga nisbatan ovozi ancha o'ktam edi. – Senday battolga qul bo'lguncha, o'lganim afzal. Yurtimni xonavayron qilgan, begunoh xalqimning boshiga yetgan zolimning malayi bo'lishdan or qilaman, nafratlanaman. O'ldir meni!

– O'chir ovozingni! – Hasan cholni bir tepib qulatdi. Chol qurigan daraxtday yerga yengilgina yiqildi, ingranib qo'ydi. Sallasi dumalab-dumalab, zulmat dengiziga g'arq bo'ldi.

Hukmdor uncha-bunchaga jahl otiga minavermas, illo, shu fazilati bilan oddiy bir mojarodan tortib, yirik janglarda ham qo'li baland kelardi.

– Bas, – hukmdor chol tomon engashdi. – Eh nodon, senga amal, boylik taklif etsam-u, sening bu ishing insofdanmu?

– Insof? – Cholning yuziga qon yugurdi. Ensasidagi chakka tomirlari bo'rtib chiqdi. – Insof degin? Hali sen insof neligini ham bilasanmi? Qal'ani zabt etib, shaharni qo'lga kiritishni eplarsan... Buzg'unchilik kasb-koring-ku, axir. Lek xalqimning irodasini sindira olmaysan. Meni ham o'z izmingga sola olmaysan... Qani endi aytchi, bir g'arib cholni o'z izmiga sola olmagan sarkarda qanday qilib butun bir mamlakatni qo'lga olmoqchi?.. Kaltafahm ekansan!

Hukmdorning g'azabini nafsoniyat tig'i tilib o'tdi. U qon tomirlarda gupirib oqdi, barmoqlar bir-birining pinjiga tiqilib jipslashdi – ular musht bo'lib tugildi.

– Hukmdorim, ruxsat eting, boshini tanasidan judo etay. Illo, men bu ishni bajarmoqqa shayman, – bo'ron boshlanishidan oldingi sukunatni his qilgan Hasan najot g'orini izladi.

– Hasan... shu kungacha menga bo'ysunmaganlarni jonidan kechib keldim. Sharqda qattiqqo'l hukmdor sifatida dovrug' qozondim... Bu yerlarda nomimni eshitmagan kimsa topilmaydi. Shu bois, oldimda hatto Azroil ham zir titragay. Bu mubolag'a emas. Ammo mana bu chol...

– O'ldir meni, o'ldir! Bu o'limni men kulib qarshi olaman.

– Yo'q, ko'rnamak, – hukmdorning tulkimonand qiyofasida qabih niyat yalt etib ketganday bo'ldi. – Bunaqasi ketmaydi. Shu kungacha hali biror zot sha'nimni bu qadar bulg'amagan edi. Shunday qilayki, toki sen beqiyos qiynoq, alamdan o'limingni qarshilagaysan!

Hukmdor shunday deya "Zulmatning soyasi" laqabini olgan xufiyasini yoniga imladi. Yo'qlik va mavhumlik – tim qora zulmat qa'ridan bamisoli uning soyasi paydo bo'lganday bo'ldi. Tun libosiga monand uning engil-boshi qop-qora, yuzi qora mato bilan o'ralgan, hech qanday ma'no mujassam bo'lmagan ko'zlarigina hukmdorining yuziga qadalgandi. Hukmdor labidan uchgan so'zlar har yonga tentiramasligi uchun barmoqlarini naycha qilib, uning qulog'iga bir necha so'zni aytdi. Xufiya g'ing demay ikki navkar hamrohligida cholni shahar tomon yetaklab ketdi...

... – Mana, Muhammad aka, suhbatimiz yakunlanib bormoqda, – boshlovchi qaddini ko'tarib, biroz taraddudlandi. – Endi, siz bilan avvalgi suhbatlarimizda e'tiborimni tortgan, meni o'ylantirib qo'ygan mavzuga o'tsak. Ya'ni o'shanda siz "biz Navoiy darajasidagi shoirni yo'qotganmiz" deb aytgandingiz. Nahotki, shunday bo'lsa? Bu so'zlarni eshitish naqadar dahshatli hodisa bo'lsa, uni aytmoqlik undan-da dahshatli va katta jur'at talab etishini anglab turibman.

"Dunyoda savol berishdan ko'ra jo'n narsa bo'lmasa kerak, har holda, gap bu yerda savolning mazmuni va saviyasi borasida ketmayapti... Doimo savol berish mumkin, ba'zida javobni eshitib ham savol berishadi: masalan, "Mening ismim Muhammad" deb javob berilsa, "Ha, ismingiz Muhammadmi?" deya tag'in savol berishadi. Ilojsiz "Ha" deya tasdiqlab yana javob beriladi. Xullas, har qanday vaziyatda va har qanday vaqtda mudom savol berish mumkin: "Bugun kun isib ketdi-ya?", "Qiziq, ertaga ob-havo qanaqa bo'larkin?", "Narx-navo oshib ketdimi, deyman?", "Shu kunlarda kasalliklarning turlari ko'payib ketdimi-a?" Ikki ko'z sizga javdirab va sinovchan qarab tursa, javob bermay bo'ladimi? Hech qursa, og'iz juftlab, "Nimasini aytasiz" deyishga zo'rg'a til boradi".

– Afsuski, Ali Shahoniy haqida aytarli hech qanday ma'lumot saqlanib qolinmagan. Biroq Majidiy nomli bir ma'rifatparvar inson XII–XIII asrlarda ijod qilgan 60 dan ortiq zamonasining tengsiz shoirlarini asarlari bilan birga jamlab, "Tazkirat ush-shuaro" nomli to'plam yaratgan... – Muhammad Akbarovichning qo'llari beixtiyor piyolani bo'g'zidan changalladi. U buni vaqtni cho'zish maqsadida qilmagan, chunki shundog'am ko'rsatuvni tasvirga olish reja qilingan 20 daqiqa allaqachon nihoyalangandi, biroq Ali Shahoniy haqida so'zlash negadir olimni hayajon quchog'ida qoldirdi. U ulug' shoirning ta-

rix elagidan but bo'lib o'tolmay qolgan ijodini qo'llarida tutib turgan choyni sipqorib ichgan kabi anglashni yurak-yurakdan istardi. – ... Ana shu to'plamda muallif o'z davrining buyuk siymosi Ali Shahoniyni ko'klarga ko'tarib maqtaydi. Ammo uning shohid bo'lishicha, Ali Shahoniy Majidiy yashagan davrdan bir yoxud bir yarim asr oldin hayot kechirgan... Shunday bo'lsa-da, uning nomi, yozgan g'azal-u ruboiylari adabiyot ahli orasida juda mashhur bo'lgan ekan.

– Gapingizni bo'layotganim uchun uzr, Muhammad Akbarovich, – dedi boshlovchi o'z hayratini yashirib o'tirmay. – Agar Ali Shahoniy siz ta'riflagandek o'z davrining buyuk siymosi bo'lgan bo'lsa, nega hozirgi avlod u haqida hech narsa bilmaydi?

"Murakkab savol! O'zing guvohi bo'lmagan, ko'rmagan davr, voqea-hodisa haqida gapirish, savollarga tayinli javob qaytarish doimo mushkul sanalgan. Bunda olimga ham, muarrixga ham tarixiy asoslar, faktlar, manbalar, tahliliy o'rganishlar, jiddiy tadqiqotlar hosilasi ko'makka keladi, madad bo'ladi. Fikrni charog'on qilib, o'sha haqiqatni bor bo'y-basticha ko'rishga imkon beradi. Ammo Ali Shahoniy... bu umuman boshqa masala!"

– Boya aytganimdek, qandaydir sabablarga ko'ra, uning ijod namunalari bizgacha yetib kelmagan. Bu achinarli, albatta... – Muhammad Akbarovich bamisoli bo'yinbog'-u yoqalar iskan-

jasida qolganday yoqasini biroz bo'shatganday bo'ldi. – Axir, xalqimiz yana bir buyuk shoirning asarlaridan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'lardi. Aytishlaricha, u yozgan betakror g'azallarini qog'ozga tushirmas, hatto to'plashni ham unchalik xushlamagan ekan. Shuni qo'shimcha qilib aytmoqchimanki, biz uni faqat Majidiyning "Tazkirat ush-shuaro" to'plamidagi birgina "Til seni ulug'laydur..." g'azali orqaligina bilamiz. Ana shu birgina g'azali orqali uning qanchalik darajada ulug' ijodkor bo'lganini anglaymiz, qoyil qolamiz. Shu boisdan, bordi-yu uning barcha ijod namunalari bizga qadar yetib kelganidami, qarabsizki, xalqimiz Navoiy darajasidagi yana bir hassos shoirning ijodidan bahramand bo'lardi...

... Chol ajalning mudhish sirtmog'ini allaqachon bo'ynida his etgani uchunmi, yuz ifodasi ma'no-mazmunsiz edi, unda na qahr-g'azab, na iltijo-yu tavallo zohir edi. Shu bois, uni qay tomonga yetaklasalar, borar yo'liga parishon nazar solib, qarshiliksiz ketaverdi. Qorong'ida turtila-surtila bir uy yonida to'xtashdi. Yusuf Boqiy hushini yig'ib atrofga alangladi, ijodxonasi qarshisida turganini payqadi-yu kayfi uchib ketdi: "Yo Rabbim, bu ne sinoat tag'in".

– Nima nomaqbul ishlarga qo'l urmoqchisiz? – g'udrandi Yusuf Boqiy.

"Zulmatning soyasi" lom-mim demadi. Ular hovlining ichkari sahniga kirishdi. Xufiya cholning yoqasidan bir qo'li bilan tutib, kutubxo-

nasiga qadar sudrab bordi. Yusuf Boqiy kuchdan qolib, qarib-qartaygandi, qarshilik qilmoqchi bo'lib qilgan harakatlari ham zoye ketdi.

Yusuf Boqiy xazinadagi dur-u gavharlarga, tilla-yu injularga mahliyo bo'lgan xazinabonday "Boyliklarim mening" deya dilidan o'tkazdi.

Devorning chor tomoni kitob javonlari bilan qoplangan kutubxonada son-sanoqsizday ko'ringan kitoblar batartib, bir-birini suyab turar, xuddi begona zotlarning odimlaridan cho'chiganday miq etishmas, atrofda sukunat ham sukut saqlardi. Yusuf Boqiy deraza tokchasi tomondagi javonga nochor va g'aribona, shu bilan birga mehr ila nigoh soldi. Uning nigohlari talpingan javonda aziz zotlarning nodir kitoblaridan tashqari, o'zining 100 dan ortiq g'azali o'rin olgan to'plamlari, risolalari, asarlari ham bor edi.

"Zulmatning soyasi" cholni tag'in sudrab hovli sahniga chiqdi. Ichkarida ikki navkar qoldi, ular ancha mahalgacha urinib, ustalik bilan Yusuf Boqiy qalamiga mansub barcha kitoblarni hovli o'rtasiga tepalikcha qilib uydi.

Butun safar chog'ida lom-mim demagan "Zulmatning soyasi" ilk bor so'z qotdi:

– Sen miyasi aynigan chol ekansan, – u cholga qarab so'zlamas, ko'zlari atrofda chor atrofni kuzatar, shu bilan birga, nimalarnidir chamalardi. – Onhazratimga qarshi chiqib, uni haqorat aylading. Uning zafarli odimlarini kelajak avlod-

ga yetkazishdan bo'yin tovlab, yetti iqlim hukmdori – olampanohning cheksiz g'azabiga duchor bo'lding... Uning shafqatli va shavkatli soyasi senga tushganda, unda panalash o'rniga soyasidan qochmoqqa urinding.

Yusuf Boqiyning butun nafrat-u g'azabi ko'zlarida jo bo'lib, go'yo bu qahrli ifodasi bilan "Zulmatning soyasi"ni qulatishni, yer bilan bitta qilishni niyat qilgan nigohini undan uzib, atrofga olazarak boqdi.

– Sen kimsan? Nasl-nasabing qanday... bilmayman. Biroq shundan xabardor bo'lki, mening qalamim ishtirokisiz ham u tarixda beshak qolajak... yosh avlod ham u haqida bilar, o'qir. Ammo u tarixda zolim hukmdor bo'lib qolajak... kelajak undan hazar qilgay.

"Zulmatning soyasi" zaharxanda jilmayib qo'ydi. Ana shu sovuq tabassumida uning amalga oshirmoqchi bo'lgan niyat-u murodi akslanib turardi. Qani endi uni o'qiy bilsang? Xudoning qahr-g'azabidan qo'rqmaydigan, uning jannat-u do'zaxidan bexabar osiy bandalargina shunday jilmayadi. Chol seskanib ketdi.

– Tarix seni ham unutgay, Yusuf Boqiy... Bu nomni endi hech kim tilga olmaydi. She'rlaring esa kelajak qo'liga yetib bormagay. Afsus, ming afsus!.. Qani navkarlar, ishga kirishinglar.

Alanga – uning do'sti yo'q, yaqin birodari yo'q, u bugun sening hukmingda yonsa, yondirsa, ertaga o'zganing izmida seni yondiradi. Unda

xotira yo'q, unda yurak yo'q. U yarim tunda o'rmonda adashib-uloqib yurgan, so'ng davra qurib sovuqdan junjikkan tanlarni qaynoq taftlari bilan isitayaptimi yoxud yong'in ichra qolgan uydagi dod-faryodlarni kuydirayaptimi, u buning farqiga, fahmiga bormaydi. Alanga fikrlashdan mosuvo, unda tafakkur yo'q. U birgina vazifani biladi, uning yakka-yu yagona maqsadi mavjud – yonish, yondirish!

Navkarlar cholning ko'z o'ngida uyqusiz o'tgan tunlarni, ming dard ichra dunyoga kelgan his-tuyg'ularni, sof va samimiy qalbni, ming mashaqqat ila bandi qilingan ilhomni – kitoblarni yoqa boshlashdi. Yusuf Boqiyning ko'zidan duv-duv to'kilayotgan alam yoshlari Qashqadaryoning irmoqlariday ikki yonog'idan oqardi... Taassufki, bu irmoqlar – ko'z yoshlar ham alangani o'chirishga qodir emas, ojiz. "Sen kimsan, Yusuf Boqiy?.. Sen she'rsan! Sen ijodsan! Qara, yurak-bag'ring yonayapti, qalbing alanga iskanjasida o'layapti. Taningning bir bo'lagi yonayapti. Sen... yonayapsan". U o'zini olovga otib, she'rlari bilan birga yonib kulga aylanmoqchi bo'ldi. Biroq bu niyatini fahmlab turgan "Zulmatning soyasi"ning baquvvat changalidan chiqib keta olmadi. Alanga bir necha kun non, suvsiz qolgan tutqundek kitoblarni yutoqib-yutoqib ichdi, chaynamay, yamlamay yutdi. Oniy· lahzalarda nafsini qondirdi-qo'ydi, kitoblar Yusuf Boqiyning orzulariday bir uyum kulga aylandi.

– Bu kunni ko'rmay, jangda shahid bo'lganim afzal edi! Yo Alloh, nega menga bunday qismatni ravo ko'rding?! Nega menga iste'dod berding?! Bir kun kelib barcha mehnatlarim kul bo'lishini ilojsiz kuzatib turishim uchunmi?! – Yusuf Boqiy og'ir va dardchil nola-fig'on chekardi.

– Barchasiga o'zing sababchisan! – dedi "Zulmatning soyasi" mazax qilganday tirjayib. – Ya'ni kim har bir ishni qilmoqdan, har bir so'zni aytmoqdan avval uning amalini o'ylab ko'rmoq joizdur.

– Xudoning g'azabiga uchrashdan cho'chimaysanmi?

– Uning g'azabi onhazratimning g'azabi oldida ne bo'libdi? Men uchun olampanoh og'zidan chiqqan har bir farmon hech bir ikkilanish va shubha-gumonsiz vojib bo'lgay... U yetti iqlimning hukmdori! Magar bilsang, uning xohish-irodasisiz hilol ham botmaydi, tong ham otmaydi.

– Sen... Alloh bandasi emassan... Sen iblisning gumashtasisan!

"Zulmatning soyasi"ning kulgusidan sukunat ummoni yuzidagi suv qalqidi.

– Sening barcha kitoblaringni yondirib, kulga aylantirgum. Biroq mana bu g'azaldan tashqari.

Cholning hissiz nigohi uning qo'llariga qadaldi. Uning qo'lida haqiqatan ham kitobining bir sahifasi o'zining tanasiday, majruh bo'layozgan ruhoniyatiday shalvirab turardi. Chol jismi jonidagi butun kuchini so'nggi bor jamlab, "Zulmatning soyasi" qo'llariga yopishmoqqa intildi. Biroq

buni oldindan payqagan xufiya uni tepib yubordi. Eh, ojizlik insonlarning haykaliga o'xshaydi. Farqi shundaki, u tirik haykal. Atrofidagi voqealarni ko'rib turadi, kuzatadi, balki ta'sirlanganidan yig'lab ham berar. Biroq qo'lsiz-oyoqsiz hech bir ish qilolmaydi. Sabr-bardoshi yetmasa, ko'zini yumishi mumkin, xolos.

– Bu g'azalingni nega yoqib yubormaganimni bilasanmi? Bilmaysan. Lek bilishingga imkon beraman. Uning nomi menga juda manzur bo'ldi: "Til seni ulug'laydur..." Rost. Magar onhazratimning taklifiga rizolik bildirganingda, shon-shuhrat ostonangga poyondoz bo'lardi. Kelajak oldida ham ulug' qahramon sifatida gavdalangan bo'larding. Biroq tiling bu ishlarning barchasini chilparchin qilib yubordi. Bilib qo'y! Sening nomingni tarixdan butkul o'chiraman. Mana bu go'zal tashbehli g'azaling esa tarixda qoladi, faqat Yusuf Boqiyning g'azali bo'lib emas, mening nomimda qoladi... Eshitayapsanmi, hech zamon qo'liga kitob tutmagan... menkim, Ali Shahoniy endi jahonga mashhur shoirdir! Sening mehnating meni ulug'ladi.

Yusuf Boqiyning ko'zlari hayratdan baqrayib, tafakkuri Ali Shahoniyning so'nggi so'zlarini hazm qilolmay turganida manjanaq uloqtirgan toshday boshi tanasidan judo bo'lib yumalab ketdi.

Mashriqdan quyosh bosh ko'tara boshlaganida ham mag'rib tomondagi hilol hali botib ulgurmagan edi... Balki, u hukmdorning ijozatiga intiqdir...

... – Juda ajoyib va mazmunli suhbat bo'ldi, – boshlovchi Muhammad Akbarovichni televideniye hovlisiga qadar kuzatib chiqdi. – Nima deyishni ham bilmay qoldim. Lolman... Biz qanaqa avlodmiz o'zi? Shunday bir buyuk va hassos ijodkor ajdodimiz haqida tayinli ma'lumotga ega bo'lmasak, bilmasak... Uyat, uyat!..

Muhammad Akbarovich uning fikriga izoh bermadi. Balki, u ham boshlovchi bilan hamfikrdir, u kabi mulohaza yuritayotgandir. Faqatgina: "Taassuf! Ali Shahoniyday ijodkor asrlar silsilasida qolib ketsa-ya!" – xayolidan o'tkazdi.

– Endi uning shaxsi va ijodini ko'proq targ'ib qilishimiz lozim. Avlodlar o'zining Ali Shahoniy kabi ajdodlarini bilmay yashayotgani insofdan emas!.. Bu fojia. Bilasizmi, Muhammad aka, shu onning o'zidayoq shu mavzuda yana bir ko'rsatuvni tayyorlashni rejalashtirib qo'ydim, – jilmaydi u olimda xayrixohlik va qiziquvchanlik tuyg'ularini uyg'otmoqchi bo'lib. – Bu gal butun suhbat Ali Shahoniy atrofida quriladi...

Ular darvozaga qadar suhbatlashib borishdi, desak to'g'ri bo'lmas, har holda, boshlovchining og'zi-og'ziga tegmas, olim esa uni tinglar, goh-gohida ma'qullaganday boshini qimirlatib qo'yar, o'y-xayollari esa qayerlardadir kezib yurar, balki asrlar sahrosida adashib-uloqib, ular sir tutgan Ali Shahoniy jumbog'ini yechmoqqa tirishar, sahroda sarobga aylangan haqiqatni izlayotgandir.

ZULMAT VA ZIYO

... Ichkaridagi zulmat tashqariga yopirilganday edi go'yo. Zaminning ko'zi so'qir bo'ldi – tevarak-atrof zim-ziyo...

– Ichkaridagi zulmat tashqariga yopirilgani yo'q... Tashqaridagi tun. U o'zining zulmatday qora ridosini egniga ilib xizmat burchini o'tagani otlandi.

– Zulmat bilan tunning nima farqi bor?

– Yanglishasan... Tun ozod, hur. U o'z xizmat vaqtida butun olamga hukmronlik qiladi. O'z izmiga bo'ysundiradi. Keladi-ketadi. Ichkaridagi zulmat esa mana bu sovuq devorlar, zax, xilvat burchaklar, hissiz temir panjaralar asiri, ular qo'lidagi bandi, xolos. Qizig'i, u mening ham asirim. Men esa uning...

– Qaydam.

Shodiqulning xayollari hujra ichra yakka-yu yagona darchadagi tishli simto'rlardek chuvalashib ketdi. Go'yo uning hurkak tasavvurini ham zulmat qoplaganday nigohi ma'no-mazmunsiz, shuursiz bir nuqtada qotdi-qoldi. So'nggi paytlar uning tasavvur quvvati ojizlashgan, bamisoli egasidek bandi etilgan, xayollari ham uchqur otdek uchmas, qanotlari singandi.

"Xayollar labirintga o'xshaydi. U seni asosiy maqsad-muddaongdan adashtirib, o'z yo'liga – turli mavzularga olib ketadi. Murodsiz va-

lakisalangday xayollaring uchragan mavzularga ilakishib yuraveradi, ba'zan shirinday tuyulgan xotiralarga tegib ketadi. Entiktiradi-yu, yana qaygadir g'oyib bo'ladi. Aslida, xotira shirin emas, u azob". Shodiqul yana aljiray boshladi. – Sening gaplaring bir xayoliy orzu.

– B-u-u... o-r-z-u em..as... – uning ovozi bo'g'izlangan jonivornikiday chiqdi.

Shunda Shodiqul o'zi ham sezmay uning bo'ynidan qattiqroq qisib yuborganini fahmladi. Qo'llarini andak bo'shatdi. Ammo yumshatmadi ham.

– Nega ekan? Bu orzudan bo'lak narsa emas. Aslida xayol surishning hech ham foydasi yo'q. Sen ham bu gapingni yig'ishtir endi. Xayol tasavvurni kengaytirishdan boshqasiga yaramaydi. Tanni esa azoblashdan.

– Bu orzu ham, xayol ham emas. Bu haqiqat. Yillar suronida isbot topgan haqiqat.

– Haqiqat degin? Men uni endi ko'rmasam kerak, turq-u tarovati ham yoddan chiqqan.

– Nega?

– Nega emish? Ko'rmayapsanmi? To'rt devor ichidaman. Ojiz!

– Bu sening qanday qarashingga bog'liq. Sening jisming asir, ojiz, ruhing esa...

Shodiqulning chakka tomirlari temir eshik panjaralaridek yo'g'onlashdi. Go'yo jismi jonidagi butun kuch-madori o'ng mushtiga tugildi-yu, totilgan alamlar, inson zoti chekmagan azob

va yirtqich hayvon ham dosh berolmaydigan xo'rliklar qorishmasi "Kelgindi"ning qorniga kelib tushdi.

"Kelgindi" enkayib qoldi. Shodiqul uning bo'ynidan qo'lini bo'shatgandi hamki, u jonsiz libosdek yerga shalvirab yiqildi.

– Meni kalaka qilyapsanmi?! – Shodiqulning ikki ko'ziga qon to'ldi.

– ...

"Tasavvur – egasiga bo'ysunmaydi, o'jar. Uni jilovlash oson deb o'ylaysanmi? Qayoqda? Men tasavvurlarimni, g'oyalarimni, fikrlarimni shu to'rt devor ichida tutishga urinib yashadim, ko'mishga... qisman erishdim ham. Ularning qotiliga ham aylandim. Mana bu shumqadam esa... ularni tiriltirish bilan ovora".

– Ruh degin? Mening ruhim singan. Shuning uchun gaplaringga ishonmayman.

"Kelgindi" tik turishni xayoliga ham keltirmas, aftidan, unga shu holati qulay edi.

– Ruh abadiy, o'lmaydi.

– Ustimdan kulma. Bo'lmasa, yana musht yeb qolasan.

– Orzu ham eskirmaydi, to ushalmagunicha. Biroq qariydi, keksayadi. Eng muhimi, orzuning umri boqiy bo'lmasin...

Shodiqulning ko'z oldi xiralashdi, bir zumga o'zini yo'qotganday bo'ldi. Oyoqlari bo'shashdi. Hademay, qulab ketadigandek tuyuldi. Lekin mana bu "Kelgindi"ning oldida nochor ahvolga

tushgisi kelmadi. O'zini tutishga urindi. Buning bari kamqonlik, madorsizlik va to'yib ovqatlanmaslik oqibati. Ovqat... U so'nggi bor qachon to'yib taom iste'mol qilganini ham eslay olmadi. Muhimi, yiqilmaslik.

U ikki ko'zini tor, zax xona devorlari bo'ylab yugurtirardi. So'linqiragan ko'zlarida qarama-qarshi va zid fikrlarining ayovsiz to'qnashuvi akslanar, ular bilan murosa qilishga urinar va ikkilanish alangasi ichra qovrilardi. Nazdida ikkala fikri ham to'g'ri, binoyi. Fursat o'tmay uning ikkisi ham kurakda turmaydi. Bema'ni. Ustiga-ustak madorsizlik raso fikr yurgizishiga imkon bermas, izmiga bo'ysunmayotgan xayollari tobora sillasini quritardi. U ojizlik odimlarida ohista sudranib, darchadan ichkariga oqib tushgan zaif va xira yorug'likka yuzini tutdi. Go'yo ko'kdagi o'roq – hilol ko'kdan tushib Shodiqulning lablariga uzalasiga yotib olgandi – u g'alati tabassum qildi. Tabassum... Necha yil bo'ldiykin uning yuzida tabassum jilva qilmaganiga. Yuzdagi asab tomirlari, muskullar, asab tolalari ham ancha yillardan buyon bunday xatti-harakatni qilmagani, ko'rmagani boisidanmi, tabassum ham noodatiy, yasamaday va quruq chiqdi.

– Menga yana aytib ber... yolg'oningni, – dedi u "Kelgindi"ga o'girilib.

– Baribir ishonmaysan-ku.

– Chunki yolg'on-da.

– Yolg'on bo'lsa, nega yana eshitging kelayapti.

– Yolg'on bo'lsa ham, shirin ekan. Sen aytaver...

"Kelgindi" tizzalarini quchib o'tirib oldi. Qo'rqa-pisa Shodiqulga nigoh tashladi. U hamon unga orqa qilgancha tik turardi. Shunda u ham o'rnidan turdi.

– Oradan yillar o'tadi... Vatanimiz uzra uzoq kutilgan ozodlik epkinlari esadi. Biz mustaqillikni qo'lga kiritamiz. Qisqa davr ichida mamlakat misli ko'rilmagan yutuqlarga erishadi. Har sohada taraqqiy etadi. Jahonning eng rivojlangan davlatlari bilan bo'ylashadi. Ular ham bizning yutuqlarimizni e'tirof etishadi. Muntazam va tish-tirnog'igacha qurollangan armiyamizga ega bo'lamiz. Yurt obod bo'ladi, gullaydi, yashnaydi. Hech kim xo'rlanmaydi... Hech kimga azob berilmaydi. Hech zog' egniga janda yoki yamoq kiyim ilmaydi. Farovon oilalar soni ortadi. Barcha bugunidan baxtli, mamnun, ertasiga esa yuksak ishonch bilan kelajakka boqadi, hur yashaydi...

– Gaplaring bolalikda buvim so'zlab beradigan cho'pchaklarga o'xshab ketayapti.

"Kelgindi" Shodiqulning so'zlariga e'tibor bermadi.

– Ayollar ham jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi. Ijodkorlar hurmat topadi, e'zozlanadi. Ajdodlarimiz nomlari tiklanadi, sharaflanadi. Qadimiy va bebaho obidalarimiz, qadamjolarimiz obod etiladi. Ularni o'z ko'zlari bilan ko'rgani dunyoning uzoq nuqtalaridan sayyohlar kelishadi...

– Yetar, bas! – Shodiqulning qoshlari chimirildi. – Tarix shohid, bu yorug' olamda bunday diyor bo'lmagan, bo'lmaydi ham. Bu xayoliy orzu! Beruniy orzu qilgan "Fozil odamlar shahri" bu!

Shodiqul "Kelgindi"ning qarama-qarshisiga keldi.

– Shoshma... Shu lahzada mening shikast yetgan miyamda bir narsa chaqnadi... Sen nayrang qilyapsan-a? Tan ola qol. Bunday yolg'on-yashiq to'qishni leytenant Sobolyov buyurgan-a? Rostmi?!

– Qanaqa Sobolyov?

– O'zingni go'llikka solma. Bu xuddi qafasdagi arslon oldiga eng tansiq taomlar keltirib qo'yganday gap. Qo'l cho'zasan-u, lekin yetmaydi. Yoki menga o'xshab... to'rt devor ichida... tirishib-burishgan, bir so'lagimga mushtoq oshqozonim changalida ezilish qismatiga duchor bo'lishdek... tansiq taomlarni xayol surishdek azobga yo'liqish dardi... Bilaman, bu o'sha makkor Sobolyovning ishi. Hididan ma'lum. Qalbi bir umr Vatani, xalqi ozodligini istagan kimsani kalaka qilish o'yini. Yo'q, o'yin emas. Azoblashning yangi turi, usuli. Bungacha urishdi, kaltaklashdi, ne azob bo'lsa, barini sinovdan o'tkazishdi... Ularni bilaman, mendek mahbuslarni xo'rlab nash'a qilishadi...

– Seni ishontirishga ojizman...

– Mayli, sen aytgancha ham bo'la qolsin! Bu uydirmalaring qachon ro'yobga chiqadi?

– Ancha yillardan so'ng...

– Muayyan muddatini so'zla!

– Yetmish to'rt yildan so'ng, men so'z...

"Kelgindi"ning gapi chala qoldi. Hilol Shodiqulning lablaridan ko'chib tag'in samo gumbazidagi o'z o'rniga qaytdi. Uning atrofidagi yulduzlar jimir-jimiri esa "Kelgindi"ning ko'zidan ancha paytgacha ketmadi.

– Nega ko'zimga urasan? – "Kelgindi" ko'zlariga to'lib qolgan zulmat parchalarini haydashga urinardi.

– Bu safargisi uchun meni ma'zur tut. Atayin urmadim. Bu men emas, g'azabim edi... Nahot biz hurlikka 74 yildan so'ng erishsak?! Evoh, darig'! Bu ne ko'rgulik, Yaratgan egam?!

Zulmat ichra ham "Kelgindi"ning ko'kargan chap ko'zi aniq-tiniq ko'zga tashlanardi.

– 74 yil xalq ko'rmagan azob, totmagan alam qolmaydi... Millionlab insonlar qatag'on qilinadi, xalq xo'rlik qamchisida ayovsiz kaltaklanadi. Bu insoniyat tarixidagi eng katta terror, vahshiylikdir...

– Bas!!! Meni ortiq qiynama!

Shodiqul o'zini zax yerga otdi. U shu qadar madorsizlanib qolgandiki, endi "Kelgindi"ning yuziga musht tushirishga ham zaiflik qilar, hatto so'zlagani sayin jismi-jonidagi bor kuchi sarf etilib, oxirlashib borardi. Og'ir-og'ir nafas ola boshladi. Alamzadalik changali uni ayovsiz ezg'ilardi.

– Ne-ne ilm-ma'rifat namoyandalari, ziyolilar, shoir-u adiblar, begunohlar aybi ne ekanin bilmay ko'z yumushadi...

"Kelgindi" ham go'yo uni tobora azob tortishini istaganday to'xtay demasdi.

Shodiqul boshini suyab turgan devorga musht tushirdi. Yana, yana va yana. Taassufki, taqdir hukmi muqarrar. Uni o'zgartirib ham, qaytadan ham yozib bo'lmaydi. Faqatgina unga qoningni chaplashing mumkin, xolos. Bundan ne naf?

Shodiqul mushtidan qaynoq narsa sizib chiqayotganini payqamadi ham. Jimib qoldi.

– Ruhingni tushirma, Shodiqul! – "Kelgindi" unga achindi. Qo'llaridan tutib uni turg'izmoqchi bo'ldi, biroq Shodiqul unamadi. – Bilasanmi? Ruh o'lmaydi, u boqiy. Buni anglab yetishing kerak. Aslida jismimiz bizga nega kerak? Zimmamizga yuklangan vazifani ado etishimiz uchun. Unga zarar yetsa, buning ruhimizga daxli yo'q. Nega deganda, ruh boqiy. Yillar o'tsin, asrlar o'tsin. Biroq ruh o'lmaydi, u tanadan tanaga o'taveradi, abadiy burch bilan yonaveradi... O'sha abadiy burch! Istiqlol burchi!

– Balki... – Shodiqul harsillab nafas olar, endi biror so'zni aytish ham unga mashaqqatdek tuyuldi. – Balki... faylasufona... chuldirash... ingni bas qilarsan...

– Bu chuldirash emas.

– Bularni o'zi... miyangga... kim joyladi?

– U joyladi.

– U... deganing... kim?

– Sen u bilan uchrashishing kerak. Uchrashgansan ham. Biroq unutib yuborgansan. As-

lida, u bilan qadrdon bo'lgansan. Menga qara, Shodiqul, u bilan ko'rishishni istasang, yarim tunga yaqin hujradan chiqib, chapdagi yo'lakka borasan, o'ngdan beshinchi kamera.

– Meni yana... kalaka... qilayapsan-a?

Ammo javob bo'lmadi. Shodiqul ham indamadi. Endi qo'llari zirqiray boshladi. Kuchli og'riqni sezdi. Shundagina o'ng mushtidan sirqirab qon oqayotganini ko'rdi, qoni ham quyuqlashib qolganiga hayron bo'ldi. "Tanamda hali ham qon bor ekan-da" deya zaharxanda jilmaydi. Ko'z oldi qorong'ilashdi. Darcha yanada xiralashdi. Zulmat uni mahv etdi. U hushidan ketdi. O'ziga kelganida xonada avvalgidek yolg'iz edi. "Kelgindi"dan nom-nishon yo'q. "G'alati! U qayoqqa g'oyib bo'ldiykin?" Bo'lib o'tgan voqeani xotirasida tiklamoqchi bo'ldiyu, biroq madorsizligi bunga imkon bermadi. Go'yo buning bari ongida ro'y bergandek, go'yo "Kelgindi"ni tushida ko'rgandek edi. Alalxusus, ko'rganlari tushmi yoki haqiqatmi, farqiga bormadi. Borishni ham istamasdi. Hech narsani istamasdi. Farqi yo'q edi. Shunda "Kelgindi" tasvirlagan kimsa yodiga tushdi. "G'irt bema'nilik! Chap yo'lakda, o'ngdan beshinchi kamera emish. Ey ahmoq, sen axir bandi bo'lsang... hujradan chiqib emish. Agar hujradan chiqa olganimda, o'sha kimsaning yoniga emas, tashqariga qochardim-ku! Yarim tungacha kut emish. Aytishga oson. Axir bu yer o'lik sukunat uzala tushib

olgan qamoqxona-ku. Bu yerda vaqt turg'un. Bu yer tun va kun, kecha va kunduz ma'no-mazmuni g'oyib bo'lgan maskan-ku! Men dam olishim kerak. Tinkam quridi...

Bezgak tutdi. Butun tanasi zirqirab og'rib, akashak tutganday qaltiray boshladi. Ko'ziga g'alati sharpalar, soyalar ko'rindi. Bir qarasa, butun kamera bo'ylab mahbuslar joylashgan, o'tirishga joy yo'qday. Nafasi qisildi. Og'irlashdi. "O'limim yaqin, chamamda". Shu tobda qulog'iga temir panjaraning zaif shaqirlagan ovozi eshitildi. Nigohi biroz teranlashdi. Ko'z oldidagi sharpalar allaqayoqqa g'oyib bo'lishdi. Ikkinchi urinishda o'rnidan turib, kuchli dovulga uchragan dengiz kemasidek chayqala-chayqala eshikka yetdi. "Evoh! Eshik qiya ochiq!" Demak, "Kelgindi" ro'yo emas ekan. Qo'llari qaltirab eshikni nari itarmoqchi bo'ldi-yu, xuddi panjaralar olov tig'ida qizdirilganday qo'lini tag'in tortib oldi. Yana urinib ko'rdi. Eshikni nari itargandi, u "nola" chekib ortga tisarildi. Fursat o'tmay g'arib, bukchaygan holda sovuq, fayzsiz va och-yalang'och yo'lakda turardi. "Kelgindi" so'zlagan chap yo'lakka emas, aksincha, bundan sakkiz yil burun o'zini kameraga tiqishgan yo'lakka ko'z tikdi. Uch-to'rt qadam yurgandi hamki, qalbidagi qochish istagi o'rnini insonning uchinchi ko'zi – mantiq egalladi. "Kameradan chiqqanim bilan duch kelgan yo'lakda yoki burchakda yuzlab soqchilar izg'ib yurgani turgan gap. Ularga

qarshilik qilish haqida o'ylash esa borib turgan bema'nilik. Quruq qopga aylangan tanada kuch-mador yo'q". U istamaygina ortiga qaytdi. Qaytib kamerasiga kirmoqchi bo'ldi. Biroq tag'in "Kelgindi"ning so'zlari yodiga tushdi. "U bilan qadrdon eding dedi... Kim bo'lishi mumkin u? Qiziq..."

Chapdagi yo'lak. Kameralar yonidan qo'rqapisa yurib borarkan, hujralardagi kimsalarga nazar soldi. U yerdagi mahbuslar bilan allaqanday mushtarakligi borday edi. Ularning ham umid shami o'chay deb qolgan, ruhi shikastlangan... Munkayib, ko'zlari so'na boshlagan. Mana o'sha beshinchi eshik. Bir qarashda bu eshik avvalgilaridan aytarli farq qilmas, odatiy edi. Biroq eshik tirqishlaridan yorug'lik sizib chiqib turardi. Qaltiroq qo'llari bilan eshikni taqillatdi. Ichkaridan hech qanday sas-sado chiqmadi. Shunda eshikka qo'l tekkazgan edi hamki, u lang etib ochilib ketdi. Xonaga qadam qo'yarkan hayratdan yoqa ushladi. Hujrada hech zog' ko'rinmas, bo'm-bo'sh edi. To'rt devor o'rnidagi ko'zgularda nochor, qartaygan, yuzlari burushib tortishgan, eti ustixoniga yopishgan, janda kiyim ilgan, jussasidan suyaklari bo'rtib chiqqan, arvohdek oppoq, chap ko'zi ko'kargan – o'zini ko'rdi, zo'rg'a tanidi. Chapdagi, o'ngdagi, olddagi va nihoyat ortdagi ko'zguda ham o'zi bo'zargan, angraygan va yana kalaka bo'lgan kishi holiga tushgandek ikkilanib turardi. Sakkiz yildan

beri yorug'lik ko'rmagan ko'zlari ko'zgular akslarida qamashib ketdi. U mukka tushib, yengi bilan ko'zlarini berkitdi. "Bu tushmi yoki yana madorsizlik ortidagi aljirash, bosinqirashmi?" Oradan qancha vaqt o'tdi, bilmaydi. Biroq shu payt ko'zgular, hujra xuddi yer qimirlayotgandek chayqala boshladi. Qamoqxona binosi bamisoli yillar davomida begunoh insonlarning qonini ichib, ko'ngli ayniganidan qusayotganday edi. O'pkasi to'lib, sillasi qurib qon yo'talayotganday edi... Nogahon ko'zgular va hujra yo'qlik sari g'oyib bo'ldi-yu, o'zini ochiq osmon ostida ko'rdi. O'pkasi toza havoga to'lib, og'ir-og'ir nafas olishi yo'qoldi-qoldi. "Bu ne mo'jiza?" Shundagina ulkan qush ustida o'tirganini fahmladi-yu, qo'rqib ketdi. Yiqilib ketmaslik umidida uning bo'yniga osildi... "Bu qanday qush bo'ldiykin?" U engashib, qushning yuziga tikilmoqchi bo'lar, biroq hurlik shamollari bunga imkon bermas, alg'ov-dalg'ov bo'lib ketgan va tarqoqlashib qolgan parishon fikrlari tobora bir butunlikni yasay boshlagandi. Nihoyat, Shodiqul uni ko'rdi. Ha, ko'ra oldi. Bu Humo qushi edi. Uni tushlarida, ong-u tafakkurida, fikri-zikrida mudom ta'qib qiladigan Humo qushi edi. Endi u ortiq fikr-mulohaza yuritishni istamasdi. U qushning bo'ynidan mahkam quchdi. Humo qushi to'rt qavatli qamoqxona binosi bo'ylab aylana boshladi. Shodiqul qamoqxona binosiga tikilarkan, undagi darchalarda umidsiz, nochor o'tirgan kishilarga achindi, rahmi keldi.

Tuyqus rangi oqarib ketdi. Uchinchi qavatdagi bir kamera darchasida o'zining jismini ko'rdi. Ko'rdi-yu, qo'rqib ketdi. Jismi zax devorga suyanib, ko'zlari olazarak, ruhi sinib o'tirar, go'yo bu xatti-harakati bilan tizginsiz tasavvuri, uchqur xayoli va ong-u tafakkurini jilovlab, bandi qilishga urinardi...

Shodiqul ortiq qamoqxona tomonga boqmadi. Humo qushi ham yuqoriga shitob bilan ko'tarilaverdi. "Kelgindi"ning tanish ovozi qulog'i ostida yangradi: "Ruh o'lmaydi, abadiy burch esa mangu, boqiydir".

MUNDARIJA

Sobir O'nar
"Aql tishi chiqqan" yosh yozuvchi.....3

"Eynshteyn jumbog'i".....5
O'tmish ko'z yumgan voqea.....32
Zulmat va ziyo.....57

Adabiy-badiiy nashr

Azizbek NOROV

EYNSHTEYN JUMBOG'I

Hikoyalar

Muharrir: *D. Mingboyeva*
Badiiy muharrir: *F. Ermatov*
Sahifalovchi: *N. Soatov*
Musahhih: *Sh. Hakimova*

UO'K: 821.512.133-32(081)
KBK: 83.3(5 O'zb)
N 79

N 79 **Norov, Azizbek.**
Burgutqoya [matn]: *Hikoyalar*/ A. Norov.
– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 72 b.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.
(98) 128-30-04. e-mail: mashkhur-press@mail.ru

Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:
Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 $^{1}/_{32}$.
Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2,25.
Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №347.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.

Azizbek Norov 1990-yilda Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida tug'ilgan. Qarshi davlat universitetining xorijiy tillar fakultetida tahsil olgan. 2017-yilda Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida ishtirok etgan. Hozirda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Qashqadaryo viloyat bo'limida bosh mutaxassis vazifasida faoliyat olib boradi.

AZIZBEK NOROV

EYNSHTEYN JUMBOG'I

"ADABIYOT"
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6473-4-3